

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA'LIMI VAZIRLIGI

NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

O`ZBEK FILOLOGIYASI FAKULTETI

O`ZBEK ADABIYOTI KAFEDRASI

BITIRUVCHI HAMIDOVA GULHAYO ORIF QIZIning

**“ALPOMISH” DOSTONIDA MILLIYLIK IFODASI”
mavzusida yozgan**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar: katta o`qituvchi Z.Quvonov

Navoiy-2013

M U N D A R I J A

KIRISH.....

**1-BOB. “ALPOMISH” DOSTONI–MUMTOZ EPOS NAMUNASI
SIFATIDA.....**

1.1.Dostonining syujeti va o‘ziga xos badiiy qirralari.....

1.2.Dostondagi qahramonlar nomlari (antroponimlari)da milliylik
ifodasi.....

2- BOB. DOSTONDA MILLIY RUHIYAT IFODASI.....

2.1. Qahramonlar talqinidagi milliylik.....

2.2. Milliy qadriyatlarning doston syujetida tutgan o‘rni.....

XULOSA.....

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....

KIRISH

Mavzuning dolzabligi. Keyingi yillarda xalq qadriyatiga bo'lgan munosabat ijobiy tomonga keskin o'zgarmoqda. Ayniqsa, umumta'lim maktablari, akademik litseylarda og'zaki ijodimizni o'rganishga alohida e'tiborning oshayotgani natijasida yoshlarimiz o'tmish madaniyatimiz xazinasidan bahramand bo'lmoqdalar. Bu tadbirlarning hammasi barkamol avlod tarbiyasiga o'zining munosib ta'sirini ko'rsatishi shubhasiz. Prezidentimiz Islom Karimov «Yuksak ma'naviyat–yengilmas kuch» kitoblarida xalqimiz og'zaki ijodining asrlar davomida xalq pedagogikasining tarkibiy qismi bo'lib kelganini ta'kidlab "...xalq og'zaki ijodining noyob durdonasi bo'lmish "Alpomish" dostoni millatimizning o'zligini namoyon etadigan, avlodlardan avlodlarga o'tib kelayotgan qahramonlik qo'shig'idir. Agarki, xalqimizning qadimiy va shonli tarixi tuganmas bir doston bo'lsa, "Alpomish" ana shu dostonning shoh bayti desak to'g'ri bo'ladi",– deb alohida ta'kidlaganlar¹. Haqiqatdan ham bu doston ilmga ma'lum bo'lgandan buyon olimlar diqqatini o'ziga jalb etib kelmoqda. "Alpomish" dostoni xususida qariyb bir asrdan buyon turli darajada fikr-mulohazalar bildirilib kelinmoqda. Ularda dostonning har xil jihatlari atroflicha tadqiqqa tortilgan. Jahon ma'naviyati va madaniyatiga munosib hissa qo'shgan, o'tmishi yuqori saviyada o'tgan xalqlar og'zaki ijodiga butun dunyo folklorshunos olimlari muttasil o'rganayotgan asarlar bor. Forsaytlar haqidagi sagalar, nardlar, manas shular jumlasidandir. "Alpomish" ham ana shunday asarlar qatorida munosib o'ringa ega. Shuning uchun ham folklorshunoslikda "Alpomish"ning xalq qahramonlik eposi sifatidagi tarixiy ahamiyatini atroflicha o'rganganlar. Hamid Olimjon², Hodi Zaripov, M.Saidov³, To'ra Mirzayev, Malik Murodov, Bahodir Sarimsoqov, Mamatqul Jo'rayev kabi o'zbek olimlari mazkur asarni ijtimoiy hayotning badiiy ijoddagi ifodasi

¹ I.A.Karimov. Yuksak ma'naviyat–engilmas kuch. Toshkent, "Ma'naviyat",-2008.

² Hamid Olimjon. Mukammal asarlar to'plami. O'n tomlik. Toshkent, "Fan", 1981-yil

³ Saidov M. O'zbek xalq qdostonchiligida badiiy mahorat masalalari. Toshkent, "Fan", 1969.

yoʻnalishida tadqiq etganlar¹. Doston haqidagi yangi fikr B.Sarimsoqovning “Alpomish” eposi haqida uch etyud” hamda “Alpomish” klassik epos namunasi” maqolalarida qayd etildi². Xususan, bu maqolada, avvalo, turkiy xalqlar, jumladan, oʻzbek xalqining mustaqil xalq sifatidagi oʻzi xos belgilari birinchi navbatda qahramonlik eposida aks etishi qonuniyati kashf etildi. Natijada olimlar tomonidan doston oʻrganilar ekan, “Alpomish” oʻzbek xalqi tarixining badiiy ifodasi sanʼatda aks etgan va ogʻzaki ijodda muhrlangan hujjat ekani toʻliq isbotlandi. Badiiy sanʼatda shunday asarlar borki, ularni oʻrganish ijod samaralarini tahlil qilish bir necha avlodlar saʼy-harakatlari bilan ham oʻz nihoyasiga yetmaydi. Millatni anglash uchun uning ruhiyatini bilish lozim. Millatning oʻziga xosligini tayin etadigan eng katta va asosiy belgitil boʻlsa, uni unutgan odamda millat tuygʻusi boʻlmaydi. “Alpomish” dostoni oʻzbekning ruhiy olamini anglatish jihatidan tengsiz badiiy obidadair. Chunki asarda oʻzbekka xos oʻylash tarzi, taʼsirlanish yoʻsini ifoda topgan. Til butun xalqning koʻp asrlar davomida toʻplagan tuganmas xazinasini. Tildagi har bir soʻz va soʻz oʻzining milliyligi va serqatlamligi bilan ham ahamiyat kasb etadi. “Alpomish” dostonidagi har bir ibora, maqol, matalda yashash tarzimiz, qadriyatlarimiz, maʼnaviyatimiz, xalqimiz, adabiyotimiz, ogʻzaki adabiy tilimiz tarixidan dalolat beradi. Dostonning bu serjilo til oʻz navbatida xalq tili taʼminlaganida koʻrinadi. Xalq tili esa tuganmas boyliklar bulogʻi, misli bir xazina. “Alpomish” dostonida qadimda otabobolarimiz amal qilgan urf-odatlar, udumlar, goʻzal til, jozibali nutq, betakror tasviriy ifodalar bilan yetkazib berilganki, bugungi yoshlarimizga uni singdirish, ularni bu udumlar bilan tanishtirish oʻzlikni anglashga undash bilan birga, xalq tili qudratini ham his etishga xizmat qiladi. Milliy ruh yaqqol aks etgan asarlarda personajlarning xatti-harakatlari, oʻylari, sezimlari faqat muayyan millat vakiliga mansub ekanligi oʻzi-oʻzidan anglashilib turadi. “Alpomish”da bu holatlar har bir

¹Qarang: Hamid Olimjon. Asarlar, 10-jildlik, ; H.Zaripov. Oʻzbek xalq qahramonlik eposi. M.1947 (Bu haqdagi maʼlumot www.tuklib.uz saytidan olindi); T.Mirzayev. ”Alpomish” dostonining oʻzbek variantlari. Toshkent, 1989.

² Sarimsoqov B. “Alpomish” klassik epos namunasi. // Oʻzbek tili va adabiyoti jurnali. 4/ 1999. 3-9-betlar

qahramon suvratiyu siyratiga singdirilgan. Ana shu kabi masalalarni o'rganish mavzuning dolzabligini ko'rsatadi.

Mavzuning o'rganilish darajasi. Xalq ijodini o'rganish– xalqning tarixi, urf-odati, an'analari, o'y-kechinmalari, buguni va kelajagini tadqiq etish demakdir. Unda millatning o'zini anglashi, o'zligini namoyon qilish xislatlari, intilishlari, hayot tarzi, dunyoqarashi aks etgan. Yurtboshimiz Islom Karimov ta'kidlaganlaridek: “Albatta, har qaysi xalq yoki millatning ma'naviyatini uning tarixi, o'ziga xos urf-odat va an'analari, hayotiy qadriyatlaridan ayri holda tasavvur etib bo'lmaydi. Bu borada, tabiiyki, ma'naviy meros, madaniy boyliklar, ko'hna tarixiy yodgorliklar eng muhim omillardan biri bo'lib xizmat qiladi”¹. Ana shunday yuksak ma'naviyatimizning asosi hisoblangan xalq og'zaki ijodini tom ma'noda anglash uchun esa uning g'oyaviy-badiiy va janr xususiyatlari, poetik shakllanishi, tarixiy ildizlari hamda mifologik asoslarini atroflicha tadqiq etish lozim bo'ladi. Xalq ijodini o'rganishda bunday muayyan yondashuv uning jonli og'zaki ijro sharoitida o'ziga xos ravishda yashash, tarqalish xususiyatlarini, uzoq asrlik tarixiy taraqqiyot jarayonida xalq dunyoqarashi va ruhiyati bilan bog'liq ayrim hodisalarning aks etish darajasi, aniq asarlar syujet tizimida tutgan o'rni, badiiy vazifasi hamda mohiyatini alohida-alohida tadqiq etishni talab qiladi.

“Alpomish”dostonining turkiy dostonlar qatorida tutgan o'rni, uning epik timsollar tizimi tadrijidagi mavqei, jahon mifologik tafakkur tajribasining “Alpomish” dostoniga ko'rsatgan ta'siri va undan o'rganilgan jihatlar, doston syujetining yaratilishiga sabab bo'lgan ijtimoiy-siyosiy, tarixiy-falsafiy, etnik-maishiy omillar, asardagi timsollar tizimi va boshqalar tekshirilgan. Bevosita doston badiiyatini o'rganishga qaratilgan ishlar sirasiga M.Saidovning “O'zbek xalq dostonchiligida badiiy mahorat masalalari” (T.,1969), I.Yormatovning “O'zbek xalq eposi badiiyati (“Alpomish” dostoni asosida)” (T.,1993), yana shu muallifning “O'zbek xalq qahramonlik eposi badiiyati” (T., 1994), Q.Yo'ldoshevning “Alpomish”talqinlari (T., 2002) kabi ishlarni kiritish mumkin.

¹ Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch. -Toshkent: Ma'naviyat, 2008. – 30-bet.

Ammo dostonni o'qimishligini ta'minlagan, xalqimiz qalbidan chuqur o'rin olgan jihati uning milliy ruhiyatimiz bilan chambarchas bog'liqligidir. Holbuki, "Alpomish" millat uchun faqat o'tmish emas, hozir va kelajak hamdir. U- barcha badiiy buyuk asarlar singari abadiyatga daxldor. Shuning uchun asarda milliy o'zlik masalasi, qahramonlar ruhiyatida milliylik masalalarini tekshirish adabiyotshunosligimizning kechiktirib bo'lmas masalalaridan biridir.

Tadqiqotning maqsad va vazifalari. Milliylik- tashqi belgi emas. U ichki holatdir. Biror millatning vakili o'zining qaysi millatga mansubligini bilsa va shu bilan faxrlansa, unda millat tuyg'usi bor inson sanaladi. Milliy ruh yaqqol ask etgan asarlarda personajlarning xatti-harakatlari, o'ylari, sezimlari faqat muayyan millat vakiligi mansub ekanligi o'z-o'zidan anglashilib turadi. Milliy iftixorimiz sanalgan "Alpomish" dostonining poetikasini o'rganishda uning ko'pqatlamli ekanligiga, doston matnigagina tayangan va undagina kelib chiqqan holda asardagi millat ruhiyati, turmush yo'sini badiiy ifodasidagi o'ziga xos jihatlarni o'rganish, dostonning yuksak badiiyati, ilgari surilgan g'oyaviyligi bilan ahamiyatli ekanligi ko'rsatish maqsad etib belgilandi. Ayniqsa, dostondagi qahramonlarning o'ta milliyliigi, inson orzu-umidlari, qalb manzaralari, yengilmas matonatini qahramonlar obrazlari orqali ochib berish ham ana shu maqsadlarning asosini tashkil etadi. Bu maqsadlarni amalga oshirishda vazifalar belgilandi.

–“Alpomish” dostoni– o'zbek xalqining eng milliy asari. Turkiy ur-odatlar tarzi, milliy ruh dostonning har satriga singib ketganligini doston syujeti asosida o'rganish;

— dostondagi alohida shaxslar olamini, ularning o'ziga xos tuyg'ularini, qalb sezimlarini tabiiyligicha, bor ziddiyatlari bilan haqqoniy tasvirlariga e'tibor qaratish;

–“Alpomish” dostoni o'qitish, tarbiya masalasi ham bizga beqiyos ibrat namunasidir. yetti yoshida ulg'aygan bosh qahramonlar–Hakimbek bilan Oybarchin endi har biri o'ziga xos mustaqil hayotga qadam qo'yadilar. Boybo'ri “Endi o'g'lim savodi chiqib mulla bo'ldi, o'g'limga endi shohlik, sipohilik ilmini o'rgatayin” deb mulladan chiqarib oldi. Boysari ham Boybo'riga taassub qilib,

Oybarchin qizini maktabdan chiqarib, “chorvadorlik ilmini o‘rgatayin” dedi”. Bu holat bugungi kunda yosh avlodni o‘qitish va hunar o‘rgatish masalasini bilan bog‘liq ekanligini ko‘rsatish;

-dostondagi qahramonlarning antroponimi (shaxs otlari)ning turkiy asosga ega ekanligi, milliy o‘ziga xoslik ismlar zahiriga ham singib ketganligiga e‘tibor qaratildi;

–milliylikning ichki holat ekanligi, millatning vakili o‘zining qaysi millatga mansubligini bilsa, va shu bilan faxrlansa, unda millat tuyg‘usi shakllangan ekanligi doston personajlari o‘y-xayolari, kechmishlari orqali talqin etildi.

“Alpomish” dostoni o‘zbekning milliy ruhiyatini ilg‘ash va aks ettirish jihatidan o‘xshashi yo‘q estetik hodisadirki, asarning badiiy qatlamlariga chuqurroq kirib borish millat ruhiy dunyosini teranroq anglash, uning bugungi o‘zbek ma‘naviyatini shakllantirishga xizmat qilishi mumkin bo‘lgan jihatlarini tayin etish ikoniyatini beradi.

Tadqiqot ishining ilmiy yangiligi. Bitiruv malakaviy ishimizda o‘zbek xalq milliy dostoni “Alpomish”dagi ba‘zi jihatlar: dostonning milliy o‘ziga xoslik jihatlar, doston qahramonlarining milliy-ma‘naviy olami, holat kechinmalari va tasvirlari o‘rganildi. Folklorshunoslikda bu borada olib borilgan ishlarga tayanib, “Alpomish”dostonidagi milliy masalasini bugungi kun nuqtai nazaridan tekshirganimiz va bu boradagi xulosalarimiz ishning yangiligini belgilaydi. Yana shuni ko‘rsatib o‘tish o‘rinliki, mamlakatimiz o‘z mustaqilligini qo‘lga kiritgach milliy-ma‘naviy masalalarni targ‘ib etish, xalqimiz tomonidan yaratilgan ma‘naviy, milliy qadriyatlarni asrab –avaylash, o‘tib kelayotgan yosh avlodni shu ruhda tarbiyalashga e‘tibor qaratilmoqda. Shunda kelib chiqib bitiruv malakaviy ishdagi milliy ruhiyat masalasi tadqiqi bu boradagi ishlarning davomidir. Shuning bilan birga adabiyotshunoslik ilmida bugungi kunda adabiy asarni tahlil qilishning yangicha tamoyillari, yangicha badiiy tafakkur nuqtai nazaridan qarashlar asosida amalga oshirildi.

Tadqiqot ishining nazariy va amaliy ahamiyati. Bitiruv ishidan chiqarilgan ilmiy xulosa va qarashlardan xalq og‘zaki poetik ijodi bo‘yicha

qilinadigan tadqiqotlarda foydalanish mumkin. Umumiy o'rta ta'lim tizimida adabiyot fanida "Alpomish" dostoni, umuman maktab adabiy ta'limidagi xalq dostonlarini o'qitishda, akademik litsey va kasb-hunar kollejlarda folklorshunoslikka doir mavzularni o'rganishda amalga oshirilgan ilmiy-nazariy qarashlarni qo'llash mumkin.

Bitiruv malakaviy ishining manbalari. Folklorshunoslikda xalq dostonlari, jumladan, "Alpomish" borasida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar, adabiy-nazariy hamda tanqidiy maqolalar, kitoblar ishning manbasi vazifasini o'tadi. Dostonning 2010-yildagi nashri ("Alpomish" Aytuvchi: Fozil Yo'ldosh o'g'li. Toshkent, 2010-yil) asos qilib olindi. Adabiyotshunosligimizda doston bildirilgan fikrlar, xalq og'zaki poetikasiga xos doir tadqiqotlardan foydalanildi.

Bitiruv malakaviy ishining tarkibi. Bitiruv malakaviy ishi Kirish, ikki asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan tarkib topgan.

1-BOB. “ALPOMISH” DOSTONI – MUMTOZ EPOS NAMUNASI SIFATIDA

1.1.Dostonining syujeti va o‘ziga xos badiiy qirralari

Har bir xalqning og‘zaki ijodi uning ko‘p asrlik tarixi, etnik xususiyatlari, dunyoqarashi, urf-odatlar, ijtimoiy-maishiy turmushini poetik ifodalovchi tarixiy-badiiy-estetik hodisadir. U o‘zbek xalqining asrlar bo‘yi umuminsoniy qadriyatlarga hissa qo‘shib kelgan milliy ma‘naviyatining tarkibiy qismi hamdir. Bunda eng mo‘‘jaz maqoldan tortib, ulkan hajmlardagi dostonlarning ham o‘z o‘rni, o‘z ahamiyati bor. O‘zbek folklori bugungi kunda ham yosh avlod ta‘lim-tarbiyasiga xizmat qilmoqda. Shu jihatdan Prezidentimizning “Alpomish” dostoni munosabati bilan aytgan quyidagi so‘zlarini butun o‘zbek folkloriga taalluqli desak, xato bo‘lmas: “Alpomish” dostoni bizga insonparvarlik fazilatlaridan saboq beradi. Odil va haqgo‘y bo‘lishga, oilamiz qo‘rg‘onini qo‘riqlashga, do‘st-u yorimizni, or-nomusimizni, ota-bobolarimizning muqaddas mozorlarini har qanday tajovuzdan himoya qilishga o‘rgatadi”.

Yurtboshimizning bu teran ma‘noli so‘zlarini termalarga nisbatan ham aytish mumkin. Chunki o‘zbek dostonchiligi tarixi, uning davomiyligi, professional xalq baxshilari ijodini termalarisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Bu o‘ziga xos fenomen sirlarini yanada to‘laroq ochish uchun xalq termalarini har jihatdan tadqiq qilish zarurligi dolzarb masaladir.

«Alpomish» dostoni—o‘zbek xalqining eng milliy asari. Turkiy urf-odatlar, tafakkur tarzi, ruh dostonning har satriga singib ketgan. Afsuski, bu xususiyatlar olimlarimiz tomonidan uzoq vaqggacha payqalmay yoxud tilga olinmay kelindi. Chunki, umuman, xalq og‘zaki ijodiga doir har qanday asarga, xususan, dostonlarga qaerlardadir tayyorlangan qoliplar asosida yondashishga odatlanilgan edi. Milliy adabiyotshunoslikda folklor asarlarini tadqiq qilishga doir g‘alatibir tamoyil bor: xalqimiz tomonidan uzoq o‘tmishda yaratilgan voqea-hodisalar keyinchalik o‘ylab topilgan qoliplarga majburan moslashtiriladi. Albatga, fanda tipologiya juda ham kerak va usiz ilm bo‘lmaydi. Axir hamma makonlardagi va hamma zamonlardagi odamlarda umumiy, universal xususiyatlar bo‘lgani kabi ular

tomonidan yaratilgan og'zaki asarlarda ham tipologik jihatlarning borligi ularni hamisha bir nazariy qolipga tiqishtirib talqin etishga asos bermaydi. Bu hol folklorshunoslikka bag'ishlangan ishlarning ilmiy qimmatini oshirmaydi ham. Taassufki, xalq ijodidagi milliy o'ziga xoslik payqab yetilgan va tan olingan hozirgi kunlarda ham folklor asarlarining ildizlarini xuddi Kunbotishdagi kabi qandaydir mifologik ishonchlarga, psixoanalitik asoslarga, ong osti oqimlariga olib borib bog'lashga zo'r berib urinish davom etayotir. Aytish mumkinki, hatto bu ilmiynamo jarayon bir qadar kuch oldi ham. Chunonchi, ayrim folklorchilarimizning "Alpomish" dostonidagi Boybo'ri bilan Boysarining farzandlari tug'ilishidan oldin suyunchi berib, otalik, boylik va shohlik shavkatini ko'rsatish istagida ovga chiqib ketishlarini o'zbekning milliy tiynatidan g'oyat uzoq sabablar bilan izohlaydilar.

Dostonda to'y tasviri va milliy urf-odamlar shunday bayon etiladi:

Haqdan kelgan ishga bo'yin iydirdi,
O'n ming uyli elatni jiydirdi.
Xabar berdi shunda otlar choptirib,
Namoyishga oq o'tovlar yoptirib.
Barchinoyga to'y qilmoqchi bo'ladi.
CHilbir cho'lda to'yni boshlab qoladi.
Qirq kundankay to'ylar oxir bo'ladi,
Bir nechalar uyga qarab jo'nadi.

... Baxmal o'tovda chimildiq tutib, kuyov navkarlari bilan kuyovni kirgizmoqchi bo'lib, bir necha xotinlar "kampir o'ldi" bo'lib, o'lganiga bir nima olib, "it irillar" degan rasmini qilib, bunda ham bir nima berib, har zamon salom solib, uydan ichkariga kirib, chimildiqqa o'tirib, oldiga dasturxon solib, ... kuyov navkarlarga to'ppi, ro'mol, sarpoylar berib, kuyov navkarlar chiqib ketdi. Barchinni bekning qoshiga olib kirib, xotinlar rasmini qilib, "chach siypatar", "qo'l ushlatar" ini qilib, bir necha yangalar har qaysisi o'z manziliga ketdi.¹

¹ Alpomish (O'zbek xalq qahramonlik dostoni). Sharq NMAK Bosh tahririyati, -Toshkent- 2010 yil. 136-bet.

“Alpomish” oʻziga xos xalqimizning qadimiy epik tafakkuri mahsulidir. Xalq ogʻzaki ijodining boshqa shakllari kabi “Alpomish” dostoni ham oʻzida katta bir davrni qamrab olgan (VI-VII asrning ikkinchi yarmi - XIV-XVI asrlar) rivojlanishning murakkab tarixiy jarayoni namunsai sanaladi. Dostonning “Qoʻngʻirot” versiyasi XVI asrdan boshlab Oʻzbekistonning janubiy regionlarida tarqalgan boʻlsa, XX asrning oʻrtalarida buyuk dostonnavis Fozil Yoʻldosh oʻgʻli ijrosida butun Oʻzbekiston boʻylab keng yoyildi. “Alpomish”da turkiy qabilalarning islomni qabul qilishi haqidagi tarixiy fakt tasvirlangan.

Ikki aka-uka Boyboʻri bilan Boysari musulmonlar uchun farz boʻlgan zakot toʻlashga turli xil munosabatlari bois tortishib qoladilar.

Oh urganda koʻzdan oqar selob yosh,
Maslahat ber, oʻn ming uyli qarindosh,
Barchinoyim boʻy yetgandir qalamqosh,
Zolim bilan hargiz boʻlmanglar yoʻldosh,
Qoʻngʻirot eldan molga zakot kelibdi,
Maslahat ber, oʻn ming uyli qarindosh!
Qursin Hakimbegi mulla boʻlibdi,
Bezakot mollarni harom bilibdi,
Qoʻngʻirot eldan molga zakot kelibdi,
Maslahat ber, oʻn ming uyli qarindosh.¹

Boyboʻri ukasi Boysaridan koʻp mingli otaridagi eng yomon qoʻylarni zakot tariqasida toʻlashini aytadi. Lekin akasining bu talabi ukasini fikricha, ular oʻrtasidagi teng huquqlilikni poymol qilganday tuyulib, elchilarning yarmini oʻldiradi, oʻzi esa elu elati bilan koʻch-koʻronini yigʻishtirib, qalmiqlar yurtiga koʻchib ketadi.

Quloq soling Boysaring tiliga,
Koʻchib ketay men ham Kashal eliga.
Davlat qoʻnsa bir chibinning boshiga,

¹ Alpomish (Oʻzbek xalq qahramonlik dostoni). Sharq NMAK Bosh tahririyati, Toshkent- 2010 yil. 16-bet

Semurg' qushlar salom berar qoshig,
Banda ko'nar tangri qilgan ishiga,
Quloq soling Boysari nolishiga.¹

“Kunlardan bir kuni Hakimbek kitob o'qib o'tirib, baxildan, saxiydan gap chiqib qoldi”. Shunda Boybo'ri o'g'lidani so'raydi: “Kishi nimadan baxil bo'ladi, nimadan saxiy bo'ladi?” Ilmi hikmat bilan ilmi davlatdan saboq olayotgan Hakimbek otasiga saxiylik bilan baxillikning uch turini sanab ko'rsatadi: birinchisi – mehmonning ko'nglini xushlab jo'natish saxiylik, joy bo'la turib mehmonni “joy yo'q” deb qaytarish baxillik, ikkinchisi – mo'rorotning qoshidan o'tayotib marhumlarning haqiga duo qilish saxiylik, duo qilmaslik baxillik. Nihoyat, uchinchisini Hakimbek shunday ta'riflaydi: “Kishining moli zakotga yetsa, zakot bersa, bul ham sahiy ekan. Agar zakot bermasa, bul ham baxil ekan”.

Aslini olganda, inson hayotida uning tabiatan saxiy yoki baxilligini ayon ko'rsatuvchi alomatlar bexisob, albatta. Nega Hakimbek, umuman, o'zbek xalqi shulardan faqatgina uch turini alohida ajratib ko'rsatyapti? Chunki har bir inson, xalq va davlat taqdiridagi eng muhim, hal qiluvchi jihatlari mana shular, shu uch hayotiy muammoga munosabat yo'sinidir. Lekin Boybo'rini, deylik, mehmondo'stlik va yo ajdodlarga ehtirom masalalari emas, uchinchi masalagina qiziqtiradi. Diqqatni ayni shu masalaga qaratib o'zicha o'ylaydi: “Men o'n olti urug' Qo'ng'iro't elining ham boyi bo'lsam, ham shoyi bo'lsam, men kimga zakot beraman? Mening davlatimda yolg'iz inimi Boysari baxillikka chiqib ketmasin”. Shunday o'ylab, o'n to'rt mahramini shunday buyruq bilan jo'natadi: “Boysari o'z rozichiligi bilan bir chichqoq uloqni zakot deb menga bersin, zakot o'rniga o'tar-da, Boysari baxil bo'lib, baxillikka chiqib ketmasin”. O'z navbatida mahramlar bu buyruqni ukasi Boysariga shunday shamoyilda yetkazdilar: “Biz akangdan kelgan zakotchi bo'lamiz, bugun bizlar sening molingni zakot qilamiz. “Zakot qilinglar, bersa zakotini olib kelinglar”, deb yuborgan”. Kayf-safo avjida o'tirgan Boysari esa, bu tomdan tarasha tushgandek gaplarni eshitib, “Ey, bizning molimiz shu vaqtgacha zakot bo'lmagan, endi akamiz o'g'illi kishi bo'lib, darrov bizning

¹ Alpomish.Toshkent, “Sharq”NMAK. 2010.19-bet

molimizni zakot qiladigan bo‘libdi-da!” deya achchig‘lanib mahramlardan yettovining qorniga qoziq qoqib o‘ldirdi, yettovining quloq-burnini kesib, o‘zlariga yegizib, otiga chappa mingizib, otning ustiga tortib boylab, akasining huzuriga haydab yubordi: “Mana buni zakot deb aytadi”. Shunda ham achchiq-alami tarqamay, o‘n ming uyli Qo‘ng‘irot elini boshlab, Boysin-Qo‘ng‘irot xalqini qoq ikkiga bo‘lib, qalmoqlar yurtiga bosh olib ketdi.

“Alpomish” dostoni qahramonlik eposi ekanligi barchamizga ma’lum. Xalq og‘zaki ijodi namunalarida voqelikning juda mubolag‘ali tasviri va qahramonlarga munosabatda hayot haqiqatiga ziddlikni kuzatib kelganmiz.

“Alpomish” dostoni ham mubolag‘aviylikda boshqa dostonlardan qolishmaydi. Ammo asardagi ijtimoiy munosabatlarni kuzatadigan bo‘lsak, asar voqeligining oddiy xayotiy turmushga naqadar yaqinligini anglaymiz. Bu xususiyatni biz syujetning dinamik rivojini ta’minlab turuvchi konfliktlarda yaqqol kuzatamiz.

Asarning ilk konfliktini olaylik: Boybo‘ri va Boysari to‘yga boradi. To‘yda ularni izzat-ikrom bilan mehmon qilishmaydi. Sababi ularning farzandi bo‘lmay, xalq ularning to‘y-tamosha qilib bu hurmatni, nozu ne‘matlarni qaytarishiga ishonmaydi. Bu asardagi birinchi konflikt bo‘lib, syujetdagi barcha voqelikning boshlanish omili hisoblanadi. To‘yda Boybo‘ri va Boysaribiylarga bo‘lgan munosabat hech ham sun‘iy emas, aksincha kishilarning munosabatida tez-tez ko‘zga tashlanuvchi tabiiy hodisadir.

Dostonning butun syujeti uchun tugun bo‘luvchi keyingi hodisaga e’tibor qilaylik. Zakot so‘rash voqeasi va undagi konflikt ham judayam tabiiy tarzda tasvirlanadi. Umuman Boybo‘rining zakot olish kerakligi haqida o‘y surishi: “ukam gunohkor bo‘lib qolmasin” deya ish tutishi voqealarini esga olaylik. Bir qarashda, bu o‘rinda ukasining oxiratidan qayg‘urayotgan akani ko‘ramiz. Mulohaza yuritilsa, shakllanib kelayotgan hokimiyat boshlig‘ining o‘z haqqini qarzдорlarga eslatib o‘tishdagi ilk qadamini ham sezishimiz mumkin bo‘ladi. Bu esa davlatchilik qonuniyatlarini yodga solishlik bilan bir qatorda, ijtimoiy

munosabatlardagi asl ziddiyat (kuchlining kuchsiz bilan aloqasi)ni ham namoyon qiladi.

Suhayl kampir ham yurtdagi obro‘yi, kuch-qudratidan kelib chiqib, boylarga dabdurusdan zo‘rlik qilib, Barchinni tortib olmoqchi bo‘lmadi. Suhayl boynikiga sovchi bo‘lib boradi. Uy oldida itlarning talaganiga qaramay kelin orzusidagi kampirning jahli chiqmaydi, mulozamat bilan Boybichadan “qizingning boshi ochiqmi” deya so‘raydi. Qarangki, dostonning bu qismida Suhayl va boylarning ilk ziddiyatli munosabatiga asos solinadi. Ahamiyatlisi shundaki, Boybichadan achchiq haqoratlar eshitganiga qaramay, kampir mehmonligini unutmaydi. Rasm-rusmini qilib oldiga tortilgan oshdan “ikki guruch” bo‘lsa-da tatib qo‘yadi. Ya’ni, Boybicha ayni vaqtda dushmanga aylangan bo‘lsa-da, u mezbon, kampirni quva solmaydi—mehmonga osh tortdi. Kampir esa mehmon sanalib, dushmanini emas, mezbonni hurmat qilishga mahkum. Nazarda tutayotgan qahramonga haqqoniy munosabat realistik asarlarga hosdir. Ammo “Alpomish” dostonida qahramonlarga munosabat realistik metod tomoyillari ostida kechadi.

Ko‘kamanning Barchin bilan ilk munosabatida paydo bo‘lgan konfliktga nisbatan ham shunday munosabatda bo‘lish mumkin: Ko‘kaman Barchinni ko‘rib qolarkan zo‘rlik qilib olib qochishni o‘ylamadi(balki “bunga imkonim bor” deb bilsa ham). U “borib qimiz so‘ray—bersa uni olaman, suv bersa quruq qolaman” degan maqsadda bo‘ladi. Barchinga “gap otar”kan uning nutqida dag‘allikni ko‘rmaysiz.

Alplarning barchinga og‘iz solishi ham tabiiydir. Chunki, Barchinday go‘zal va boyvachcha qizga faqatgining yurtning eng oldi alplari loyiq edi. Alplarning talabi o‘rinli bo‘lib, Barchin haqiqatdan ham kimgadir tegishga majbur. Vaholangki, u aytayotgan Alpomishdan hali darak bo‘lmasa... Alplar nega 6 oylik muhlatga ko‘nadi? Chunki salbiy qahramon bo‘lmasin, ularda apllarga xos mardlik xususiyati bo‘lishi tabiiydir.

Natijada beshikkerti qilib qo‘yilgan Alpomish (Boybo‘rining o‘g‘li) bilan Oybachin (Boysarining qizi) ayriliq domiga tushishadi. Dostonda musulmon

turmush tarzi, axloq qoidalar va rasm-rusumlariga oid juda ko'p tafsilotlar keltirilgan.

1.2.Dostondagi qahramonlar nomlari (antroponimlari)da milliylik ifodasi.

Boybo'ri va Boysarilarning ismlari etimologiyasi, xozirgi o'zbek tili nuqtai nazaridan "boy" ma'nosida emas, balki qadimgi turk tili ma'nosida – "qabila, urug'". SHunday qilib, Boybo'ri (Boy + bo'ri) va Boysari (Boy + sari) qabilaviy bo'lib, so'zma-so'z tarjimasi – "bo'ri" qabilasi boshlig'i, "sari" qabilasi boshlig'i ma'nosini bildiradi. Tarixdan ma'lumki, turk qabilalarining (turkutlar) ilk birlashmalari dohiy Ashina tomonidan 545 yili amalga oshirilgan¹. Uning ismi syanbiy (qadimgi mo'g'ul) tilida "Olijanob bo'ri" ma'nosini anglatadi². Turkutlarning asosiy totemi bayroqlariga zar bilan tikilgan oltin bo'ri hisoblanadi. Boybo'rining zakot haqidagi iltimosini Boysariga 14 ta elchi (mahram) yetkazadi, ularning ko'kragida qo'tosining oltin tasviri bor edi. Boybo'ri (Alpomishning otasi)ning elchilari erkaklik, hosildorlik timsoli bo'lgan qo'tos tasvirini bejiz ko'kraklariga tushirishmagan. Doston boshida elchilar Boysari (Barchinoyning otasi) jallodlari qo'lida halok bo'lishsa-da, doston yakunida Alpomish sevgilisi va uning otasini qalmiqlar asirligidan ozod qiladi. Surhayl kampirning (Alpomishning ashaddiy dushmanlaridan biri) o'g'illaridan ba'zilarining ismi ham qadimgi totem va astral kulturning sarqitlaridan xabar beradi. Ko'kqashqa (Ko'k+qashqa), Boyqashqa (Boy+qashqa) zoomorf antroponim bo'lib, so'zma-so'z "ot qabilasi"dan degan ma'noni anglatadi. Ko'kaman (Ko'k+man) – "qo'y vabilasidan". Bosh qahramonlarning tug'ilgan joylari Boysun(Boy+sun) "butun qabila" ma'nosiga muvofiq keladi. Bu syujetning dramatik yechimiga to'g'ridan-to'g'ri bog'liq. Aynan kelishmovchilikdan so'ng Boysari o'z qavmini qalmiqlar yurtiga boshlab ketgach, butun qabila ikkiga bo'linadi, ular vataniga, ya'ni Boysunga qaytgach, yana bir butunga aylanadi. Alpomish singlisining ismi

¹ Qarang. O'zbekiston tarixi. Toshkent, 2005. Toshkent, "Fan", 59-bet

² Iso Jabborov. O'zbek xalq etnografiyasi. Toshkent, 2001 yil, 18-bet

Qaldirg'ochoyim sadoqat, qondoshlik aloqalarining mustahkamligini ifolaydi, zero o'zbek xalq poeziyasida qaldirg'och aynan shu sifatlar ramzidir. Aynan singlisi tufayli Alpomish qallig'iga tahdid solayotgan xavf haqida bilib oladi. Va aynan Qaldirg'ochoyim Alpomishni uyaltirib, Oybarchin va uning otasiga yordam berishga chorlaydi, o'z baxti va xalqning birligi uchun jasorat ko'rsatishga undaydi. Suqsuroy antroponimi (Oybarchinga nisbatan qo'llanilgan epitet hamda uning ismi so'zma-so'z "Suqsur-Oy") ism bekasining chiroyini ta'kidlaydi. Bosh qahramon Alpomish ismi ikkita so'zdan tuzilgan: alp+mish (yoki manash, misha). Alp polvonni anglatadi: mil (sanskrit. mesa) – astronomik Hamal burji. SHunday qilib, qahramonning ismi bahodir – qo'y, Hamal burjida tug'ilgan bahodir ma'nosini bildiradi. Qo'y obrazi O'rta Osiyo ko'chmanchi chorvador xalqlari san'atida asosiy obrazlardan biri bo'lib, hali-hanuzgacha qozoq, qirg'iz va qoraqalpoqlar naqshu nigorlarida saqlanib qolgan. Lekin syujet rivoji davomidagi ko'plab epizodlar, boshqacha, ya'ni nikohning va qarindoshlik rishtalarining ancha avvalgi shakllarini tasvirlaydi. Qalmoqshohning jallodlari dehqonchilik nimaligini bilmaydigan xalqi qalmiqlar yurtida butun dalalarni payhon qilganligi uchun Boysarini ushlaganda, u qo'yib yuborishlarini, buning uchun butun boyligini berishga tayyor ekanligini aytadi. SHu asnoda u agar: "Molim yetmasa beray Barchin qizimni", deydi. YA'ni bu yerda u qiziga boyligining bir bo'lagi sifatida qarashligi ta'kidlanadi. Lekin dostonning bosh qahramoni Barchinoy nozik-nihol, hijron azobida qaddi bukilgan sohibjamolni emas, balki polvon qizni ("alp qiz") namoyon qiladi. Ota-onalari bilan majburan qo'noq topishgan uzoq qalmiq yurtida qiz unga sovchi bo'lib kelgan 7 ta o'zga yurtlik polvonlarning do'q-po'pisalarini nazar-pisand qilmaydi. Aksincha, unga tahdid qilgan birovini osongina yelkasi osha irg'itib yuborib, yelkasini yer tishlatadi va yengilgan polvonning qorniga tizzasini bosib, qolgan polvonlarga o'z shartlarini qo'yadi: unga 6 oy muhlat berishlarini va u bu vaqtda unashtirilgan yigiti bilan bog'lanib, uning xohish-istagini bilishini aytadi. Barchinoy obrazi matriarxal xarakterdagi obraz. yettita qalmiq polvonlar esa Barchinoyning huzuriga kelib unga: "O'rtada jovlik xotinli bo'lib qolaylik" yoki "O'zbek qizini yo birimiz olaylik, yo barimiz

olaylik”, deb o‘z shartlarini qo‘yadilar. Qalmiq bahodiri Qorajon (keyinchalik Alpomishning do‘sti) uni o‘zbek qiziga unashtirish uchun sovchilikka borgan onasidan: “Tulki bo‘lib kelyapsanmi, bo‘rimi?” deb so‘raydi. “Bo‘ri” so‘zining ma’nolaridan biri o‘g‘il ekanligini nazarda tutgan holda, yuqorida keltirgan gapning ma’nosini quyidagicha sharhlash mumkin: sen o‘g‘lingni unashtirdingmi yoki ikki qo‘lingni burningga tiqib kelyapsanmi, ya’ni erkaklik ustun keldimi yoki ayollik? Dostondagi ko‘pqatlamli mifologik fikr matnning analogiya, ko‘pma’nolilik kabi ma’nolarga to‘yinganligida ko‘rinadi. Zero, uzoq yo‘l yurib kelgan Alpomish tun tushishi oldidan, yorug‘likka ko‘zi tushib, mozoristonda yotib qolishga qaror qiladi: “Kech qolgan odam mozorotda yotadi”. SHu ma’noda u “ahli quburlarga” yotib qolish uchun ruxsat so‘rab murojaat qiladi. Lekin yorug‘lik ichidan chiqib kelgan odam avvaliga unga rad javobini beradi: “Bu yerda otingizga joy bor, o‘zingizga joy yo‘q”. Ushbu sahnada ajdodlarimizning ibtidoiy udumlari turli mifologik qatlamlar bilan o‘ziga xos tarzda chog‘ishib ketgan. Ma’lumki, homiy ajdodlarimizning marosimlari (dafn va ehson marosimlari) erta diniy shakllardan biri bo‘lib, uning kelib chiqishi musulmonlikdan ancha oldingi davrga borib taqaladi. Rad javobining ma’nosi esa, ajdodlar ruhi (ularning qo‘nim topgan joylari mozoriston) odam o‘rniga otni tanlashdi. Ko‘plab qadimgi chorvadar xalqlarning dafn marosimlarida otning ahamiyati alohida ma’no kasb etadi.

Surxayl degan qo‘shma so‘z “sur”, ya’ni, bezbet va “xayl”, ya’ni, “ahli” so‘zining o‘zgargan shakli (deylik, mumtoz she’riyatimizda “oshiq ahli” aksariyat hollarda “oshiq xayli” tarzida qo‘llangan!) – shu ikki so‘zdan tarkib topgan. Demak, “Surhayl” – bezbet ahlidir. “Maston” esa, makrni “makkor”, “ayyor”, “tulki”, “jodugar”, “tovlamachi”, “bozigar” kabi so‘zlardan ham kuchliroq ifodalovchi so‘z bo‘lib, “mast qiluvchi makkor” demakdir.

Ma’lumki, “ko‘kaldosh” so‘zining tub lug‘aviy ma’nosi “bir onaning ko‘kragini emib katta bo‘lgan ikki go‘dakning biri” demakdir. SHunday ekan, Surxayl mastonning to‘ng‘ich o‘g‘li kimning ko‘kaldoshi? Dostonda bu xususda lom-mim deyilmaydi. Ko‘kamanning uch ukasining “Ko‘kqashqa”, “Boyqashqa”,

“Toyqashqa”ligi ham bejiz emas, albatta. Ular ham shohlikka baayni otning qashqasidek ko‘zga ayon tashlanib turgan da’vogarlar: birining “Ko‘kaldosh” bilan “Ko‘kaman”ga o‘xshab “ko‘k”i bor, birining boyligi bor, yana biri hali toy, “Toychixon” bo‘lmasa-da, har qalay, “toy”! Oltinchi o‘g‘il “Qo‘shquloq” deb ataladi. yetti o‘g‘ilning faqatgina kenjasi Qorajondagina “jon” bor, ya’ni, u olti akasi, xususan, Qo‘shquloqdek “jonsiz” emas! Bunda ham tagma’no bor, albatta. Chunki Qorajon, “qora xalq”, “avom”ning timsolidir. Turkiy tilimizda “qora” so‘zi rang-tusni emas, “katta” ma’nosini anglatishi ko‘pchilikka ma’lum: qorahoniylar, qoraxitoylar, Qorabotir, qoramol va hakozo. “Katta xalq”ning “jon”i bo‘lishi tabiiy, albatta. Qanaqangi makr saltanatida yashamasin, modomiki odam bolasi “aqlli jon”, “ongli mavjudot”, “tafakkur sohibi” sifatida yaratilgan ekan, qora xalq ichidan ertadir-kechdir joni, ya’ni, dilda dardi, iymoni-vijdoni bor kiroyi shaxs, mardi maydon qahramon chiqishi tabiiy.

Folklorshunos Jabbor Eshonqul o‘zining “Alpomish” dostonida ayollar obrazi” nomli maqolasida dostondagi ayollar obrazi va ularning ismlaridagi o‘ziga xos jihatlarga e’tibor qaratadi. Jumladan, “Alpomish”dostonida Alpomishning onasing oti Kuntug’mish. Bu nom shunchaki oddiy nom emas. Bu ism ajdodlarimizning qadim tasavvurlari bilan bog‘liq. Kun, ya’ni quyosh qadimda muqaddas sanalgan. Quyosh qadimda tangri maqomidagi barcha tiriklikning homiysi hisoblangan¹.

Til butun xalqning ko‘p asrlar davomida to‘plagan tuganmas xazinasini. Tildagi har bir so‘z va so‘z qiymatini moddiy xazinalar, moddiy boylik bilan o‘lchab ham, baholab ham bo‘lmaydi. Masalaga xuddi shu nuqtai nazardan qaralganda, Fozil Yo‘ldosh o‘g‘li kuylagan «Alpomish» dostonidagi har bir ibora, maqol, matal kishi havas qilgudek. Boshqacha qilib aytganda, mazkur doston tili har jihatdan kishini lol qoldirgudek. Darhaqiqat yashash tarzimiz, qadriyatimiz, ma’naviyatimiz, xalqimiz, adabiyotimiz, org’aki adabiy tilimiz tarixi bo‘lmish «Alpomish» dostonining sehrli, jozibali, maftunkor, shirador tili, ijro usuli

¹ Qarang. Jabbor Eshonqul. “Alpomish”dostonida ayollar obrazi. // O‘zbek tili va adabiyoti jurnali, Toshkent. 4/1999. 16-17-betlar.

o'quvchini sehlasa, sehrlagudek. Doston tilining bu qadar sehrli bo'lishini esa o'z navbatida xalq tili ta'minlagan ko'rinadi. Xalq tili esa tunganmas boyliklar bulog'i, misli bir xazina.

2-BOB. DOSTONDA MILLIY RUHIYAT TADQIQI

Millatni anglash uchun uning ruhiyatini bilish lozim. «Alpomish» dostoni o'zbekning ruhiy olamini anglatish jihatidan tengsiz badiiy obidadir. Chunki asarda o'zbekka xos o'ylash tarzi, ta'sirlanish yo'sini, qarorga kelish tutumi g'oyat nozik ilg'ab olingan. Juda ko'pchilik folklorshunoslar, odatda, markazlashgan davlat tuzish, bo'lingan yurtni birlashtirish, sevgi-muhabbat mavzulari «Alpomish» dostonining syujet rivojini ta'minlaydi deb tushuntirishadi. Bizning nazarimizda esa doston markazida ma'rifatsizlik, johillik va uning inson taqdiriga ta'siri turadi. Asar qissadan hissa chiqarish uchun emas, balki «qissa»ning o'zi ko'lamli, miqyosli, yirik, ta'sirli; (bo'lgani uchun aytiyagay. Chindanda, «Alpomish» yaratilmagan, balki aytilgan yoki kuylangan. Chunki doston qahramonlariga xos tuyg'ular, sezimlar, kechinmalar buyuk turkiylarning tomirida, qonida azaldan mavjud edi¹. Turkiy xalqlar tomonidan kechirilgan, tuyulgan, hozirda ham qonda kezib yurgan ma'naviy amallar, hodisalar uning ko'nglida, «tili uchida» turgandi. O'sha kuylab yuborildi. Alpomish taqdirini kuylash zarur edi. Kuylamaslik ilojisiz edi.

Doston syujeti ham ayni tug'mas kundoshlar uyushtirgan tuhmatlar sabab ro'y bergan voqealar asosida rivojlanadi. Uchinchidan, «Rustam» dostonida ochiqdan-ochiq: «Sultonxon Huroyim yoriga aytdi: “Dunyodi bir qo'rqqan yomon, bir quvongan yomon” degan gap bor, Menimg qariganda ko'rgan farzandim; Men shu yerda yursam, sen bir kun tug'ib qo'yarsan. Men quvonganimdan yuragim yorilib o'lib qolarman. Qurudum mamlakatiga safar qilayin. Oldimga suyunchi deb chiqqan kishiga ayamasdak tanga–tilla berarman, qulog'idan dunyoga ko'marman, balyu qo'rg'onbegi qilarman»,—deb qo'yilgan. «Alpomish» dostonida ayni shu holat quyidagicha asoslanadi: «...biylar ikkovi aytdi: «Bizlar ham bir shohlik shavkatini qilsak, ovga chiqib ketsak, farzandlar yer yuziga tushsa, suyunchi, deb bir nechalar oldimizga yo'lga chiqib, bizlardan tilla-tanga in'om olsa»,—deb o'ylarni o'ylab, biylar ovga jo'nab ketdi».

¹ Yo'ldoshev Qozoqboy. “Alpomish” talqinlari. Toshkent, “Ma'naviyat”, 2002. 28-bet.

Doston tuguni ma`rifatsizlik, jaholat va xudbinlikdan paydo bo`lgani quyidagi parchadan anglashiladi: «Ey bizning molimiz shu vaqtgacha zakot bo`lmagan, endi akamiz o`g`illi kishi bo`lib, darrov bizning molimizni zakot qiladigan bo`libdi-da!» deydi Boysari. Zakot haqidagi qonuniy talabning, ukasining shariat qonuni bo`yicha baxil bo`lib qrlishvdan qo`rqib, «chora» ko`rgan akaning ezgu tilagi aynan johillik tufayli, shunday tamomila teskari talqin qilinayotir. Johilliq atamasini bu o`rinda shar`iy ma`rifatsizlik ma`nosvda ham, o`jarlik ma`nosida ham, jahldorlik ma`nosida ham tushunish mumkin va o`rinli. Ma`rifatsiz, johil kishi xudbin bo`ladi. Bunday odam hamma narsada faqat o`zini ko`radi, o`zini eshitadi, mantiqqa quloq osmaydi. U hayotni boricha ko`rib anglashga qobil emas, balki o`zi istaganicha ko`radi va ko`rganicha izohlaydi. Qarashlarini hayotdan keltirib chiqarmaydi. Aksincha, hayotni qarashlariga moslamoqchi bo`ladi. Shu bois zakot ber degan shar`iy talab Boysariga zug`um bo`lib ko`rinadi, adolatsizlikday tuyuladi. Shuning uchun ham so`fiylar: «O`zingdan o`tting — yetding», — deyishadi. Uzidan baland turolmagan odam hech qachon Yaratganning marhamatiga noil bo`lolmaydi,- uning jamoliga yetisholmaydi.

Boysarining aqli qolipda, ongi jaholat iskanjasida bo`lsada, ko`ngli butunlay ma`rifatsiz emas. Aks holda u akasi bilan jang qilishi, «toptalgan» sha`ni uchunqurrl o`qtalib, «qonuniy» o`ch olishi ham mumkin edida. O`n ming uyli elatni ovora qilib, xalqi osudaligini yo`qqa chiqarsada, akasiga yaroq ko`tarmaganining o`zi Boysarining Xudodan umidi bor deyishga asos bo`ladi.

Asarda Boysari ikki bor g`oyat qaltis o`rinlarda qarindoshlardan maslahat so`raydi. Va har ikki safar ham elning oldi, donosi, bilgasi emas, balki: «Majlisli kun bo`lsa to`rdan joy tegmay, piyoladan choy tegmay, bo`sag`ada kovushga joy byormayi kovush bilan aralashib, it yiqilish bo`lib, payga betda yotar edi» deb sifatlangan tirtiboy (dostonda shunday ataladi, aslida yarimta ma`nosidagi Yortiboy bo`lishi kerak) maslahat beradi. Bizningcha, bu tasvir tasodifiy emas va u shunchaki kulgi tug`dirish uchungina berilmagan. Shu holatdagi odamdan chiqqan maslahat nima bo`lardi-yu, shu asosda qilingan ish, tashlangan qadam qanday

samara berardi?

Dostonning tasvir yo`sinin rangin. Undagi bironta obraz ham jo`n, oddiy tasvirlanmagan. Jumladan, hatto Boysari obrazi ham tasvir vaziyatiga qarab turli qo`rinishlar kasb etadi. U hamisha faqat mantiqqa zid o`jarlik bilangina band emas. Boysari tadqiqotchilar shu vaqgga qadar da`vo qilganlari kabi faqat o`zini o`ylaydigan, o`jar odamgina emas, nomus tuyg`usi o`tkir, otadik mas`uliyatini chuqur his qila biladigan shaxs ham. Bu jihat obrazning quyidagi so`zlarida to`liq namoyon bo`ladi:

Tong otgancha muhlat olib turaman,
Qalmoqlarga qizim qanday beraman?!
YUragim to`lgandir diyda g`amda,
Barchinoydi o`z tengiga qo`shmasam,
Mashhar kuni Barchin qo`li yoqamda...¹

Uning Yortiboy maslahatidan so`nggi dardchil holati asarda judata`sirli berilgan. Ishongan kishilaridan ko`ngli qolgan, ruhan yolg`iz ekanligini endi anglab yetgan chorasiz boy tushgan holatning izhori quyidagi so`zlarda ifodalangan deyish mumkin:

Yuragimda ko`pdir alamli dardlar,
Mening qizim–sening singling, nomardlar.
Qizing ber deb mening ko`nglim bo`lasan,
Suyagimni yongan o`tga solasan,
Qalmoqlardan badtar izza qilasan.²

Keltirilgan she`riy parchada nomusli ota iztiroblari nozik berilgan. Dostonning ayni o`rnida qorin g`amidagi yaloqxo`rlarning holati ham e`tiborga loyiq tasvirlangan. Olijanob tuyg`ular, yuksak sezimlar tanti va mard odamlargagina tegishli. Bu sifatlar yuksak insoniy fazilatli kishilar qismati, nasibasi. Ular shu qismat dardida yashaydilar:

Tong otgan so`ng bitar alplar muhlati,

¹ Alpomish (O`zbek xalq qahramonlik dostoni) . Sharq NMAK Bosh tahririyati, Toshkent- 2010 yil. 25-bet

² O`sha asar, 26-bet

Ziyodadir Boysarining kulfati,
Maslahat bermadi turgan ulfati,
Qolmadi Boysaribiyning toqati.¹

Dostonda Barchin ruhiyati g'oyat teran aks ettirilgan. Uning baland martaba, baland ruh, baland qadr egasi ekanligi, shu bois o'ziga ham, o'zgaga ham yuksak talablar bilan yondashishi juda ta'sirli ifodalangan. Ayni vaqtda odamni anglash, uning ruhiy holatini o'z vaqtida nozik hisobga ola bilishi asarda ortiqcha izohu tushuntirishlarsiz asosli tasvir etiladi. Barchin — barcha aqlli odamlar singari murakkab tabiatli. U — turlicha vaziyatlarda o'z tabiatining anvoyi jihatlarini namoyish eta oladigan favqulodda timsol. Bir vaziyatda u — mushtipar, chorasiz odam. Otasi Qalmoqqa ko'chmoqchi bo'lib, ularni og'ir ahvolga solganda, yoshgina Barchin onasidan yozg'irib deydi:

Bul ko'chishing, ena, mening sho'rimdir,
Boy otamman biy boboma ne bo'ldi?
...Xo'ja kelsa, chiqar murid naziri,
Xotin bo'lmasmikin erning vaziri?!
Er deganning aqlin olmas bo'lurmi?
Aldab-suldab yo'lga solmas bo'lurmi?!²
YOki yana bir o'rindagi holatga e'tibor qaratamiz:
...Ot abzallab olib keling enajon,
YAna qaytib elni ko'rmagim gumon.
Yig'latding,enajon,menday sanamni,
Kelib ko'rolmayman maktab jo'ramni,
Bunda turmay Qalmoq elga borarsan,
Qalmoqlardan ko'p zulmni ko'rarsan,
Borib so'ngra ko'p pushaymon qilarsan.³

¹ O'sha asar, 27-bet.

² Alpomish (O'zbek xalq qahramonlik dostoni) . Sharq NMAK Bosh tahririyati,Toshkent- 2010 yil. 28-bet

³ Alpomish (O'zbek xalq qahramonlik dostoni) . Sharq NMAK Bosh tahririyati,Toshkent- 2010 yil. 30-bet

Erka, hali turmush sinovlariga duch kelmagan, lekin tabiatan tiniq fikrli qiz kattalarning adashayotganliklarini, ularni bu yoʻldan ayol kishigina qaytarishi mumkinligini tuyadi. Shu bois botinib: «Xotin boʻlmasmikin erning vaziri», — deya onasiga iddao qiladi. Lekin oʻzbekning qizi boʻlgani bois yurak yutib noroziligini otasiga bildirolmaydi. Chunki u ota hamisha ulugʻ koʻriladigan, padardan kamchilik axtarilmaydigan oʻzbek oilasida oʻsgan. Shu bois otasining ogʻir holatini hazm etolmaydi. Hech qachon shashti qaytmagan Boysarining qalmoqlarga javob berolmay ogʻir ahvolda qolganini koʻrib, masʼuliyatni oʻz zimmasiga oladi va hech narsadan tap tortmaydigan jasur qiz ekanini koʻrsatadi. Faqat otasiga ogʻangizdan ortiq koʻrib ergashtirib kelgan qarindoshlaringiz zap maslahat berdi-ku deganday gina qiladi:

Juda ham gangidi, boy ota, boshing,
Maslahat berdi-ku qavmi-qardoshing,
Koʻp yigʻlama, jonim otam, darvishim,
Eshitmagin qarindoshlar soʻzini,
Qarindoshlar bera qolsin qizini!
...Xafa qilma, ota, menday qizingdi,
Qoʻya ber alplarga mening oʻzimdi...¹

Bu oʻrinda Oybachin otasini hammadan aziz koʻruvchi, uning qiynalishiga toqat qilolmaydigan mehribon va oqila farzand sifatida namoyon boʻladi. Oybachin oʻrni kelganda poʻpisani ham joyiga keltiradi. Uni olmoq payida toʻdalashib turgan qalmoklardan tap tortmay balanddan keladi:

... Meni olarman deb xayol qilmagin,
Ketgin qalmoq, kelgan yoʻldan qolmagin.
Mening toʻram, bilsang, Boysin sultoni,
Unga qurbon menday oyimning joni.

Mazkur soʻzlar oʻz qadrinibiladigan, birovning zugʻumiga osonlikcha boʻy bermaydigan, erkini, koʻngil istaklarini, shaʼnini baland tuta biladigan qiz tabiatini

¹ Alpomish (Oʻzbek xalq qahramonlik dostoni). Sharq NMAK Bosh tahririyati, Toshkent- 2010 yil. 38-bet

namoyon etadi. U– chinakam o`zbek qizi, olti oylik yo`ldagi qallig`ini «to`ram» deb ulug`laydi unga jonini nisor etmoqqa hozir. Ayni vaqtda Alpomishga yozgan xatida bu hakda lom-mim demaydi. U faqat xudoning hukmi–fotihagagina ishora qiladi. Barchinning Alpomishga bitgan xati sof o`zbekona: «Oltoychalik yo`lga keldim, to`qson alpga toy-talashda qoldim, olxi oyga muhlat oldim, mendan umidi bo`lsa, Alpmish kelsin, bo`lmasa javobimni bersin». Shu uch qatorgina maktubda ham xavotir ham noz, ham iddao, ham istig`no, ham g`urur, ham umid, ham ko`ngil mayli aks etgan. O`zbekning qizi haqiqiy maishiy vaziyat bilan emas, ko`nglidagi holat bilan yashaydi. Birovga atashtirilgan qiz, javobini olmasa, qaerda va qancha bo`lsa ham o`zini boshi bog`liq sanaydi, egali deb biladi. Chukki unga egalisan deyilgan! Chunki u Yaratganni o`rtaga qo`yib so`z bergan! So`zning qudrati! U, ha endi, vaziyat shunday bo`lib qoldi, boshqaning etagini tutishimga to`g`ri keldi demaydi. Deyolmaydi. U o`zini fotiha oldida, atashtirilgani oldvda mas`ul sezadi.

Barchin obrazining nechog`li sog`lom aql, xushyor fikr egasi sifatida tasvirlanganligini ko`rsatadi. Barchin odam ruqiyatini, uning nozikdan-nozik ko`nglini teran anglaydi. Boychibor Qorajon bilan poygaga jo`natilib, salam qirq besh kun bedarak ketganda, ruhi tushib, umidsizlangan Alpomishni: «Boshing ko`tar. Ko`ng`irot elning qo`chqori», — deya umidlantiradi.

“Alpomish” dostonida odam kontseptsiyasi g`oyax puxta belgilangan. Asarda hayotiy vaziyat va qahramon shaxsiyatidan kelib chiqib, har bir obraz tasviriga differenziial yondashiladi, ular zimmasiga imkoniyatidan ortiq yuk ortilmaydi. Qalmoqlarning qo`ng`irotlarni siquvi, Barchinga tahtsid qilib ularning orini toptayotgani haqida xabar bermoqchi bo`lgan choparlarning nao`zlarini, na otlarini ayab qilgan fidoyiligining ulkanligayu ular erishgan natijaning arzimaslighi aks etgan samimiy tasvirlar bu jihatdan, ayniqsa, diqqatga sazovor. Dostonning shu o`rnida odamning odamdan farqi yorqin aks ettirilgan. Choparlar shuncha joniqish, urinish, zo`riqish bilan 90 kunda arang Boysunga yetib kelishadi. Oddiy odamning fidoyiligi, samimiyligi, astoydilligiga qaramay, faoliyatining natijasi o`ziga — oddiyligiga yarasha bo`ladi. Favqulodda ish g`ayrioddiy odam qo`lidan keladi,

xolos. G`ayrioddiy xususiyatlarga ega odamning bemalolligi, ba`zan, hatta tepsa-tebranmaslik darajasida og`irkarvonligi sababi shunda. Chunki u boshqalarning ming urinib qilolmaganini bir zarb bilan hal etishiga ishonadi. O`ziga ishonch bunday kishida og`irlik, qanoat tuyg`ularini shakllantirgan. Dostonda shu jihatlar g`oyat nozik hisobga olingan.

Dostonda Boybo`ri bilan Boysarilarning o`zaro munosabatlari, kelishmasdiklari, johilliklari, bemexrliklari va bu holatning sabablari haqida alohida to`xtalinmagan. Ammo asardagi yondosh tasvirlar bilvosita shu xulosani chiqarishga xizmat qiladi. Chunonchi, Boybo`rining Barchin choparlariga po`pisasida eldoshlar, ini, bo`lg`usi kelin takdiriga hukmdor og`aning mutlaqo beparvoligi ko`zga tashlanadi: «Bundan ketgancha, Qo`ng`irot muzofotidan o`tgancha, Qalmoq viloyatiga yetgancha, yo bir o`tinchiga, yo bir podachiga, yo cho`lda yurgan cho`ponga «Biz Barchinning chopari bo`lar edik» deb og`zingdan chiqarsang, odam buyuraman, keyiningdan quvib yetadi, boshingga qamchi chotadi, badaningni bo`zday qilib yirtadi, opkelib dorga tortadi...» Ifoda qanday go`zal! Agar taqiq buzilsa, choparlar boshiga tushishi mumkin bo`lgan og`ir kunni imkon qadar ta`sirli, ravshan gavdalantrmoq uchun dostonda badiiy so`z qudratidan g`oyat oqilona foydalanilgan. Dostonda choparlarning Boybo`ri taqiqiga munosabati ham chin, tabiiy tasvirlangan: «Xo`p gapni gapirdi, xohi bor, xohi borma, bizdan bir xizmatda, biznyng borgan-bormaganing bilan nima ishimiz bor, ketsa, sening kelining ketadi, qalmoq olsa, sening iningning qizini oladi, bizdan ketadigani bir yo`l xizmatimizda...» Bu so`zlarni chin o`zbekona munosabat tarzining samimiy ifodasm deyish mumkin. Choparlar o`zlarining bor-yo`g`i xabarchi ekanliklarini, Boybo`riga maslahat berib, uni insofga chakirishga haqlari yo`qligini yaxshi bilishi asarda go`zal aks ettirilgan. Asarda odamlilik sha`niga, nomus, burch tuyg`ulariga beparvo odamdan ko`ra bezovta jonivor afzalroq ekanligi juda go`zal tasvir etilgan. Chunonchi, enchi tarlon biyaning yarg`oq quluniga doir tasvir bu jihatdan kishi e`tiborini o`ziga tortadi. Avvalo, tarlon juda kam uchraydigan ot turi. Bu xil otning o`zgachaligi — tarlonligida! Shu biyadan tug`ilgan quluning holati dostonda juda ta`sirli berilgan: «Choparlar kelib

ketgandan keyin tabladagi ot sag`risi toshib, yoli qulog`idan oshib, yulduzni ko`zlab, taraqqos boylab o`ynay berdi». Bu nazarkarda qulun ham barcha jonivorlar singari tuyg`u bilan ish ko`radi, aql bilan emas, shu bois o`zi xizmat qilishi lozim va mumkin bo`lgan vaqt kelganini sezadi! O`z tarixiy missiyasini bajaradigan fursat yaqinlaganini tuyadi. Shu bois bezovtalanadi. Ajdodlarimiz jonivorlarga bizlarga qaraganda yuzlarcha marta yaqinroqbo`lganlar. Ular otning holatini anglaganlar, Boybo`rining otga xavotirli munosabati, uni «yomonlagur» deb yanishi bejiz emas. Otni alohida otxonadan, Alpomishning ko`zi tushishi mumkin bo`lgan joydan chiqarib, Qultoy boqib yurgan minglab yilqilar ichiga qo`shib qo`yishida ham uning tarixiy vazifasini ortga surysh harakati bor. Boychibor Alpomishdan oldinroq zimmasidagi ulkan vazifani bajarish vaqti yetganini sezdi. Uning nazarkardaligi ham aynan shunda edi. Ajdodlarning badiiy tafakkuriga tan berib aytish kerakki, folklor asarlarida hech qachon qahramon tabiatiga to`g`ri kelmaydigan ishlar ularga tiqishtirilmaydi. Ko`pchilik olimlar A.chpomishni oshiq, ishq yo`lida kaxramonliklar ko`rsatgan kishi sifatida taqqim etmoqchi bo`lishadi. Holbuki, doston matnita sinchiklab qaralsa, tamomila buning aksini ko`rish mumkin, Alpomishning Barchin so`roviga, choparlar orqali yuborgan xatiga dastlabki munosabati: «Oltoychalik yo`lda bo`lsa, qalmoqning elida bo`lsa, zo`r yovning qo`lida bo`lsa, bir xotin olamiz deb sandirab o`lamizmi?»—deb xatni tizzasining ostiga bosib o`tirdi tarzida tasvirlangan. Qahramonning bu munosabatini qanday izohlash mumkin? Hakimbekning uzoqdagi qallig`i iltijosiga, ogoxlantirishiga bu qadar sovuqqonlik bilan munosabatda bo`lishi sababi qaerda? Alpomish bilan Barchin bir-biriga o`tli muhabbat qo`ygan yoshlar emas. Agar shunday bo`lsa, Layli-Majnun singari ishqiy sahnalar, muhabbat mojarolari, eng bo`lmaganda, Farhod singari sio`ilishlar tasvirlangan bo`lardi. Alpomishning beparvoligi tayinsiz, sababsiz, emas, U—ulkan vujud, beadam ko`ch, shunga yarasha, chegarasiz sabr egasi. Alpomishning muhabbati Allohga, so`nggina bu dunyodagi yaratiqqlarga. Shu bois u hadeb yonib ketavermaydi, ko`tarilavermaydi. Barchinga ham sevikli yor, go`zal qiz, o`rtanayotgan sohibjamol, iztirob chekayotgan asira deb emas, shunchaki bo`lajak

xotin deb qaraydi, xolos. Shu sababdan dastlab qimirlagisi ham kelmaydi. Unga aynan qimirlash, faoliyatga kirishish malol. Xatni tashlab ham qo`ymaydi, cho`ntagiga solmaydi, balki tizzasi ostiga bekitadi. U haliveri qimirlaydigan emas. Barcha ulkan odamlar singari xatdagi fojiaiy holatni hazm qilishi darkor.

Aslida folklorshunoslar qahramon tabiatining shu jihatlarini dunyo eposidagi o`zga obrazlarda davom etayotganligini topsalar ma`qul bo`lardi. Badiiyat uchun syujetning yaqinligi emas, balki tasvirdagi muvoziylik, yovuqlik muhim. Chinakam tipologik belgilarni shundan ko`rsa bo`lardi. Muhabbat iztiroblari, adolat uchun kurash, firibgarlarniig qilvirliklarn, yovuzlikning chegara bilmas andishasizligi dunyoning hamma joyida ham bir xil mohiyatga ega. Hamma odamlarning tug`ilishi, yashashiyu o`limida umumiylik bo`lganiday, ularning hayot yo`llarida, sevgi sarguzashtlarida, adolat uchun kurash jarayonlarida o`xshashlik bo`lishining hech bir g`ayri tabiiy joyi yo`q. Syujetdagi o`xshashlikdan ko`ra ruhiyatdagi o`xshashlikni tadqiq etish mushkulroq, ammo juda ham foydali.

O`zbekning pahlavoni ilmoqli gapni ko`p ham elamaydi. Unga kinoya qilish emas, balki to`qqyz pulday qilib, tugib berganda anglab olsa ham katta gap. Alpomish o`zini nar-moda deyilmish haqoratga daxldor ko`rmaydi, bu sifatni o`ziga aslo yaqinlashtirmaydi. Shu bois singlisiga yuqoridagi so`roqni beradi. Bu so`roq esa, nomusli kishi uchun avvalgi holatdanda og`irroq.

Qaldirg`ochning akasiga javobida o`zbek ayoliga xos eng nurli jihatlar yorqin namoyon bo`ladi:

Har kim o`z elida bekmi,to`rami,
Nar-modalar sendan kamroq bo`lami?!
Mardning yori toy-talashda qolami?!
Mard bo`lib maydonli kunda yurmagan,
Yilqichidan bedov siylab minmagan,
Olmos po`lat belgan qayrab cholmagan,
Ot asbobin shaylab Qalmoq bormagan,
Qalmoqlarga qattiq kunlar solmagan
Toy-talashda qolgan yorin olmagan,

...Nar modalar sendan ortiq bo‘lami?

Bu so‘zimni nega og‘ir olasan,

YO‘ring ketsa, qanday elda yurasan?

Tirik yurmay, aka sen ham o‘lasan....¹

Ayol qalbini o‘rtagan, uning vujudini junbushga keltirgan nomus tuyg‘usi alangasi uncha-muncha bemalollikni, loqaydlikni, erinchoqlikni olovday kuydirib yuboradi. Ammo Alpomish oddiy odam emas. Shu sabab u haliyam bu gaplarni unchalar anglamaydi, u qadar xijolat bo‘lmaydi. Singilning shuncha achchiq ta‘nalaridan so‘nggina bu yirik odamni Qalmoqqa nimada borish muammosi sal bezovta qilganday bo‘ladi: «Yayov boramizmi esa» Alpomishning bu bo‘lmag‘ur mulohazasi Qaldirg‘ochda qanday munosabat uyg‘otganini tasavvur etish mumkin: «To‘qson to‘qay yilqing bor, yayov borib mingani oyoq-ulov topmay yotibsanmi? Egar-abzalni olsang, yilqiga Qultoyning qoshiga borsang, ko‘nglingga yoqqanini xohlab minib keta bersang». Qaldirg‘ochning bu qadar batafsil gapirishiga sabab barcha yirik, qoruvli, pahlavon odamlarda bo‘ladigan tepsa-tebranmaslik, kamhafsasalilik sifatleri akasida qay darajada mavjudligini bilganidan. Ijkilab tushuntirmasa, yana nimanidir qilmay yoki noto‘g‘ri qilib qo‘yishidan xavotirlanganidan. Shu bois «egar-abzalni olsang», deb ham ta‘kidlaydi.

Alpomish — og‘ir tosh. Xalqda «og‘ir tosh ko‘chsa» degan gap bor. Alpomishning siljishi qiyin. Siljib olsa, uni to‘xtatib bo‘lmaydi. U Qultoydan ot olishga ketayotganda otasiga duch kelishi, Boybo‘rining «Ko‘rar ko‘zim, bolam, qayda borasan?» degan so‘roviga o‘g‘ilning: «Ey, zakot olmay o‘ling siz bir», — degani Alpomishda sal siljish boshlanganidan dalolat. Bu toifa odamlarga jikillab borib-kelaverish, qiziqqonlik, bo‘lar-bo‘lmasga ta‘sirlanaverish, o‘rgangan sharoitni o‘zgartirish — og‘ir. Shu sabab uzoq yurtga borish uchun yo‘lga chiqayotgani haliyam malol kelib turibdi. Haliyam badani tamomila qizigani yo‘q. O‘ta polvon, o‘ta kuchli odamlar bir oz qo‘rqoq kelishi ham bor gap. Buni Boybo‘ri juda yaxshi biladi va shu bois Qultoyga: «Adpomish ketyapti, Kashaldan

¹ Alpomish (O‘zbek xalq qahramonlik dostoni) . Sharq NMAK Bosh tahririyati, Toshkent- 2010 yil. 125-bet

kelgan xabarni birov bildiribdi, bul ish yomon bo`pti, o`zi zo`r-ku, zo`r bo`lsa ham juda qo`rqq, sal do`kdan ham qo`rqadi o`zi, urib-so`kib, yilqi bermay, do`qlab qaytarib yuborgin». — deya tayinlaydi.

Qultoyning qahrli vajohati, ot so`ragan Alpomishni so`kib, urishi bolaning ahvolini bilganidan va hukmdordan topshiriq olganidan. Biydan pishang olgan Qultoyning Hakimbekka degan gaplari uning nechog`li boy hayotiy tajribaga egaligini, yosh, sodda yigitning yurag`iga g`ulg`ula solish yo`llarini qanchalik bilganligini ko`rsatadi:

O`zbekning odobi dostonida shu tarzda juda yuksak maqomda namoyon bo`ladi. Quliga qarata:«O`zinga yor, bobo, senga xizmatkor» keltiraman deyish faqat o`zbekning o`yiga kelishi mumkin. Chunki bizda katta, ulug` yoshli odam — har narsadanda katta va ulug`. Uni e`zozlash, hurmatlash lozimligi kunning yorug`ligi singari tabiiy hol.

Hakimbekning tog`day gavdasi va chumchuqnikiday yuragi asarda go`zal bir mutanosiblikda tasvirlangan. Alpomishni qo`rqqdan ko`ra sodda, bayov go`l deyish to`g`riroq bo`ladi. Dostonida Qultoy tasviri alohida e`tiborga loyiq:

Bu so`zni aytib mardning aqlin oladi,
Uch-to`rt tayoq qayqaytirib soladi,
Egan tayoqlaring yilqi bo`ladi!
Hakimbekning ko`zi alanglab qoladi.
Tayoq yegan bekda qolmadi toqat,
O`ldirar qaytmasam,deydi vallamat.
Bul bobosi ko`p siyosat qiladi,
Juda aylantirib ancha uradi,
Bobom urdi dedi,qaytib jo`nadi.¹

Dostonida odam ruhiyati eng nozik jihatlarigacha puxta tasvirlanadi. Qultoydan tayoq yeb ortiga qaytgan va yo`lda singlisiga yo`liqib, yana yilqilar tomon yurishga majbur bo`lgan Alpomishning chindanam joni shirin, ichi po`k

¹ Alpomish (O`zbek xalq qahramonlik dostoni) . Sharq NMAK Bosh tahririyati,Toshkent- 2010 yil. 210-bet

bola ekani, ayni vaqtda unda mas'uliyat, oriyat tuyg'ulari bosh ko'tarayotgani asarda juda chiroyli berilgan:

Qalbi hamiyatga to'la, oriyatli qizning ichki olami qancha butun bo'lsa, uning ro'zg'oriy a'mollari — shunchalar to'kis, minsiz. U chorvachi qizi, u bolalikdan jonliqqa qarab, molga qaraganlarga qarab ulg'aygan. Buning ustiga, aqli tiniq, fikri o'tkir. Shu bois ayol boshi bilan otnida tushunishi g'ayritabiiy emas.

Dostondagi bir tasvir g'oyat diqqatga sazovor: Boychiborga mingan Hakimbek tamomila o'zgaradi. Haligina ovsarbashara, befarq, qadrbilmas bo'lgan o'spirin birdaniga yigitga aylanadi. Negaki, unda endi mas'uliyat tuyg'usi paydo bo'ladi. U endi kimlarning oldidadir javobgar ekanini, uning biror ish qilish yoki qilmasligi o'zgalar taqdiriga ta'sir etishini anglab yetadi. U sanoqli daqiqalarda ulg'ayib qoladi. Shu bois hozirgina dam tayog'ini yeb, dam tagiga bosib yotgani Qultoyni astoydil «bobom» deb, yaqindagina zug'umidan qayga qochishni bilmay yurgani—Qaldirg'ochni «munglug' singlim» deb ardoqlaydi. Mas'ullik tuyg'usi kishini tez ulg'aytiradi.

“Alpomish”da Qorajon dastlab Alpomishga raqib sifatida namoyon bo'ladi. U ham epik qalmoq yurtida Alpomishga dushman bo'lgan to'qson alpning biri. “..Kenjatoyini Qorajon der edi. SHu yettoviga tir qilgani Qalmoqshoh har mamlakatlardan alplarni olib kelib, to'qson alp qilib, Kashal g'oridan joy berib, bularni to'qayistonda boqib yotar edi”.¹ Demak Qorajon Alpmomishga raqib bo'lsa, raqib bo'lgidek: yoyandoz mergan, to'qson botmon sovut kiygan, har kuniga to'qson shirbozning etini yegan, o'n to'rt mahramiga ega alplardan. Buning ustiga u ham Barchinga talabgor. Alpomish bilan do'st tutinishdan oldin, uning kurash tushishi bu obrazning zamirida raqib obrazi haqida tasavvurlar yotadi deyishimizga asos bo'ladi. Dostonning boshqa variantlarida² uning do'st emas, chinakam raqib sifatida namoyon bo'lishi ham bu fikrimizning isbotidir. Biroq, bu obrazning zamirida shunday xislatlar bo'rtib turishiga qaramay, unda raqiblikdan

¹ Alpomish. Aytuvchi: Fozil Yo'ldosh o'g'li. Nashrga tayyorlovchilar: **H.Zarifov, T.Mirzayev**. - Toshkent.: Fan, 1999. – B.90.

² Alpomish. Aytuvchilar: Pulkan va Ergash Jumanbulbul o'g'li. – Toshkent.: Fan, 1999.

ko‘ra ko‘proq, ko‘makchi qahramon funksiyasi ustunlik qiladi. “Alpomish” dostonning aksariyat variantlarida ana shu holatni ko‘ramiz.

Nega boshqa alplar emas, aynan Qorajon zimmasiga shu vazifa yuklatildi degan savolning tug‘ilishi tabiiy albatta. Chunki, u alplarning eng kenjasi edi. Kenjatoylar esa boshqa ertak va dostonlardan ham bizga ma‘lumki, akalaridan ayricha yo‘l tutadigan va hamisha noan‘anaviy fikrlaydigan personaj. Epik ijodda kenja o‘g‘ilning og‘ir sinovlarga yo‘liqishi va oxir-oqibat murodu maqsadiga yetishishi ham o‘zining tarixiy asoslariga ega. Jahon folklorshunosligida kenja o‘g‘il eng ko‘p ishlangan va yana chuqur tadqiq etilishi kerak bo‘lgan obrazlardan biridir.

Epik ijodda xalqning nafaqat tafakkur tarixi, balki hayotiy tajribalari ham o‘z ifodasini topgan. Katta aka obrazi ertaklarda ko‘pincha mavjud tajriba timsolida keladi. Shu sababli u odatda sinalgan yo‘llarni tanlaydi. Tajriba bir tomondan odamni aniq maqsadlarga olib borsa, ikkinchi tomondan inson faoliyatini malum bir qolipga solib qo‘yadi. Bir qolipdagi faoliyat harakat, isyon, hayajon, tavakkalchilikdan xoli bo‘ladi. Bunday faoliyat odamni inert, qo‘rqoq yoki xudbin qilib qo‘yishi mumkin.

Hayotiy tajribasida jabr-sitam, mashaqqatlar ko‘rgan, qaysi yo‘lni tutsa, xavf-xatardan uzoq bo‘lishini bilgan odam tajribalidir va u odatda tajribasiga tayanib ish tutadi. U tanlagan yo‘l qolipga o‘xshaydi. Shu sababli katta aka bexavotir yo‘lga ketsa yoki xudbinlik va xoinlik qilsa ajablanmaymiz, chunki u hayotiy, steriotip tajribalarga tayangan. Tajriba hamisha to‘g‘ri yo‘l bo‘lavermaydi. U to‘g‘ridan ko‘ra barqaror, xavfsiz, xudbin odam uchun juda maqul bo‘lgan tinch yo‘ldir. o‘rtancha aka esa mavjud imkoniyat timsolidir. Imkoniyat ham ko‘proq tajriba asosida kelib chiqadi. Shu sababli o‘rtanchi aka katta akaga yaqin yo‘lni tanlashi tabiiy holdir. Imkoniyat ham tajriba kabi hamisha to‘g‘ri bo‘lavermaydi. Odam odatda o‘z tajribasi va imkoniyatidan kelib chiqib yashaydi. Agar xalq og‘zaki ijodi faqat tajriba va imkoniyatning badiiy ifodasi bo‘lganda, oddiy jo‘n hikoyalardan farq qilmas edi. Orzu-istak esa har qanday tajriba va imkoniyatdan yuqoridir. U insonda azal-abad tuyg‘ularini uyg‘otadi. Azal-abad tuyg‘ular har

qanday sanatning yuragidir. Shu sababli xalq o'z tajriba va imkoniyatlaridan tashqari hamisha umid-orzu qiladi. Xalq o'zi yengib o'tolmagan mashaqqatlarni, yetolmagan baxt-saodatini orzu zimmasiga yuklaydi.

O'zbek xalq ijodidagi kenja o'g'il, kenja botir malum manoda orzu-umid timsolidir. U har qanday mashaqqatni, yovuzliklarni, xavf-xatarni, qarshiliklarni yengib murod-maqсадiga erishadi. U shu paytgacha ota-bobolari tanlab kelgan yo'ldan borishni istamay, yangi yo'ldan ketar ekan, o'zining isyonkorlik timsoli ekanini ham namoyish qiladi

Kenjaning aql kuchiga ishonishi insoniyat ongidagi buyuk yuksalishlardan birining folklordagi ifodasidir. Epik ijoddagi aksariyat ko'makchi qahramonlar kenja o'g'il, yoxud kenja botir bo'lishining sababi ham shunda. SHuning uchun ham Qorajonni akalari tushunmaydi, akalaridan farqli ularoq u Hakimbek bilan do'st tutinadi va uning yaqin ko'makchisga aylanadi. Barchinga yorining kelganini xabar bergan, ot poygasida tutingan do'sti nomidan poygada qatnashgan, Alpomishni ori uchun o'zining elatdoshlari bilan kurashga tushgan ham aynan shu Qorajondir. Alpomish yetti yillik zindonga bandi etilganda ham unga ko'makka faqat Qorajon keladi.

Ba'zi bir tadqiqotchilar "Alpomish"dagi ko'makchi qahramonlar faoliyatiga shunchaki badiiy shartlilikning natijasi ularoq qarashi ham mumkin. Biroq, eposdagi har bir obraz sinchiklab tahlil qilinganda, ular faqatgina badiiy shartlilik mevasi emasligiga amin bo'lamiz. Aksincha, qahramonlar faoliyatini bo'rtirib turgan ba'zi jihatlarni biz badiiy shartlilik deya qabul qilishimiz kerak. Poygani kuzatib turgan Alpomishning Boychibor otini tanimay behush bo'lib yiqilishi, o'zidan ortda qolayotgan Qorajonning akasi Ko'kaldoshga qarata:

Asli ko'nglim, senda edi bek og'a,

Bu Boychibor jilov bermay boradi,¹ -

deyishlari ularning ayni paytdagi holatini shartlilik yo'sinida asoslashga xizmat qiladi. Aslida esa, Alpomish har qanday vaziyatda ham o'z oti Boychiborni tanishi shart edi. Uning tashqi ta'sirsiz, o'zidan-o'zi behush bo'lib yiqilishi, zimmasiga

¹ Almomish.197-bet.

yuklatilgan vazifasini bajarayotgan Qorajonning noiloj, “ayb”ni otga ag’darishi, ijrochining badiiy shartlilikdan unumli foydalanganligini urg’ulovchi bir unsur xalos. Dostonda ko‘makchi qahramon nima uchun zarur degan savolga javob berilmas ekan, Alpomishning ham, Qorajonning ham yuqoridagi kabi harakatlari tushuniksiz bo‘lib qolaveradi.

Xuddi shunday holatni biz dostonda Alpomishning Qalmoq yurtiga otlanishi bilan bog‘liq lavhalarda ham ko‘ramiz. Barchindan maktub olgan Alpomish yorining taqdiriga befarqdek ko‘rinadi. U “...xatni o‘qib ko‘rib: Olti oychalik yo‘lda bo‘lsa, qalmoqning elida bo‘lsa, zo‘r yovning qo‘lida bo‘lsa, bir xotin olamiz deb, sandirab o‘lamizmi”, - deb xatni tizzasining ostiga bosib o‘tirdi”.¹ Bundan xabar topgan Qaldirg‘och singlisi uning “jig‘iga tegib”, yo‘lga otlanishga majbur qiladi. Biroq, Qultoyning do‘q-po‘pisasidan keyin u yana fikridan qaytadi. Faqat, singlisining maslahat va yo‘l yo‘riqlaridan keyingina u safarga otlanadi. Epos qonuniyatidan bexabar odam bu parchani o‘qib, Alpomishga turli “yorliqlar”, yopishtirib, uni faoliyatsizlikda ayblashi turgan gap. Eposda an’anaviy statik holatda keluvchi bunday parchalardagi yuzaki “qatlam” shunga asos beradi. Aslida esa Alpomishning imkoniyatlari dostondagi ko‘makchi qahramonlardan yana biri Qaldirg‘och orqali yuzaga chiqmoqda.

Zindonda bandi bo‘lib yotgan Alpomishga Boychiborning ko‘makka yetib kelishini, ajodlar kultini o‘zida mujassam etgan Qultoyning ilohiy tulpor qiyofasida qahramonga yordam berishi deb tushunish mumkin. Chunki, ko‘makchi tomonidan hadya etilgan jism (oyna, taroq, qilich, kamon, pichoq va hakoza) yoxud biror bir ilohiy jonivor ko‘makchi atributining o‘ziga tengdir. SHuning uchun ham dostonda Qultoy asosiy ko‘makchi bo‘lib gavdalanadi va yetti yillik sinovlardan so‘ng Alpomish aynan uning qiyofasiga kiradi.

Qaldirg‘ochoyim ham dostonda oddiy bir obraz emas, balki qahramon, yani Alpning homiysi, iloha sifatida gavdalanadi. Buni biz Alpomishning Dobonbiy bobosidan qolgan qo‘riqni uch marta tashlab, uch marta ham o‘zi uncha ko‘ngli to‘lmagan tulporga tushganda, Qaldirg‘och uning oddiy ot emas,

¹ Alpomish. 122-bet.

ilohiy tulpor ekanini birinchi bo‘lib aytganida ham ko‘ramiz: “Xafa bo‘lma, bu oting balki tulpor bo‘lib chiqar, yomon dema bul oting nazarkardadir. Buni mingan odam ko‘p yerlarni ko‘radi. Maqsadini haqdan talab qiladi”,¹- deb akasining ko‘nglini ko‘taradi. Alpomishning otiga Boychibor nomini bergan ham Qaldirg‘ochoydir:

Qulli bo‘lsin, akajon, arg‘umog‘ing

Yomon dema, aka, Boychiboringni..²

Boychiborning ilohiy tulpor ekanligini birinchi bo‘lib payqagan, uni egarlashda ko‘maklashgan:

Oy Qaldirg‘och tortdi otning belidan,

Sirti ipak, ichi mayin ayildi..³

va Alpomishni kiyintirgan:

Oy Qaldirg‘och olib kelgan libosni

Kiygin, deydi, Hakimbekka beradi..

Qaldirg‘och oddiy ayol emas, Alpomishning ilohiy homiylaridan biri ekanligini ko‘rsatadi. Zero, alpga singillik qilish, Alpomishdek alpning tulporini egarlash, uni o‘q o‘tmaydigan, suvda cho‘kmaydigan, olovda kuymaydigan qilib kiyintirish-ya’ni qahramonni ilohiy asbob-anjom va ot bilan taminlash homiy obraz haqidagi tasavvurlarning qahramondagi badiiy ifodasidir.

Qahramon munosabatga kirishar ekan, syujet tizimida yangidan yangi motivlarni yuzaga keltiradi yoxud unga o‘zgachalik bag‘ishlaydi. Alpomish zindonda bandi bo‘lib yotganda unga Qayqubod ko‘makka keladi. Qayqubod bilan bog‘liq lavhalar dostonga yumoristik ruh bag‘ishlaydi va epik sahnaning qiziqarli chiqishini ta’minlaydi. Lekin Qayqubodning eng muhimi “xizmati” syujet xalqasiga boshqa bir ko‘makchi qahramon - Tovka oyimni olib “kirishi”dir. Tasavvur qilaylik, Qayqubod sahnaga Tovka oyimni olib kirmaganda, doston voqealari boshqa yo‘sinda rivoj topgan bo‘lardir.

¹ Alpomish. 81-bet.

² Alpomish. 82-bet.

³ Alpomish. 84-bet.

Syujet tizimidan Tovka oyim bog'liq motivlar joy olishi bilan, Qayqubodning "faolligi" so'zlashadi. Uning "faol"ligi aks etgan sahnalar orqa planga "chekinishi" bilan esa, Tovka oyim bilan bog'liq voqealar yuzaga qalqib chiqadi va doston tizimida asosiy o'rin egallaydi. Shu o'rinda: "Alpomish nega Tovka oyim qazigan lahmndan ozodlikka chiqib qo'ya qolmadi. Axir buning iloji bor ediku", -degan savol to'g'iladi. Garchand, dostonda Tovka oyim qazigan lahm Alpomishga to'g'ri kelmasligi aytilsada, gap bu yerda boshqa yerda. Endi epik qahramon faolligi qahramonlar orqali emas, balki bevosita Alpomish orqali yuzga chiqmoqda.

Xulosa qilib aytganda, har bir qahramon faoliyati epik ijodda o'z vazifasiga ega. Ular ayri-ayri holda, keng tahlil etilmog'i lozim. Bunday obrazlarning talqini, badiiy asar va undagi syujet hamda motivlarning mazumunini yanada chuquriroq anglashda bizga yaqindan yordam beradi.

Dostonda millatga xos ruhiy sifatlar ko'pchilik ishtirok etgan lavhalarda ham yorqik namoyon bo'ladi. Ayapomish to'rt kecha-kunduz yo'l yurib, qalmoqqa qaytayotgan Oybarchin choparlariga yetib borganda ular: «Oq yuzli, obro'li bo'ldik», — deb otdan tushib ta'zim qildi. Bu — faqat o'zbekda bo'ladigan holat, Barchin, Alpomish uchun ham zahmat chekib, ham Boybo'ridan bir qadar zug'um ko'rib, ham elatdoshlaridan rag'bat topman norozilanish o'rniga topshiriq o'rinlatilmaganidan xijolat tortish uchun o'zbekcha ruhiyat egasi bo'lish kerak. Ishning yaxshilanganidan shodlanib, «obro'li bo'ldik» deya olish uchun ham faqat ijrochi emas, qondosh, taqayrdosh bo'lish lozim.

Bu—nomusli, uyatchan o'zbek yigitining qalb so'zlari. Ular,—sarguzasht izlamagan, or talashishga majbur bo'lgan asl erkakning izhori dili! Alpomish, keyinchalik, Qalmoqqa yetgach, otlar poygasi boshlanib ketganda Oybarchinning o'zi yo'qlatganida ham sabrga sobitligicha qoladi. Barchinning kanizaklari yigitni qiziqirib, «qalliq o'yin»ga chaqirishadi: Ramz, ishora—ijodning boshi. To'g'ri so'z, hayotni boriday aks ettiruvchi so'z hali badiiy ijod emas. Ta'sirli, hissiy so'z badiiy ijod hisoblanadi. O'zbek—hamisha ijodkor. U ishora bilan fikrlaydi, ramz bilan ifoda etadi. Imon egasi, komillik yo'lga kirgan solik o'zida, avvalo, sabrni

tarbiyalaydi. Mavlono Rumiyni g`animlari so`kkanlarida ham: «Aytganingizman»,—deb kulib turganliklari haqidagi mashhur rivoyat havoni, g`ururu kibrni yengish uchun qanchalar balandlik, yuksaklik zarurligini anglatadi. Hidoyat yo`liga kirgan Qorajonda ayni shu xislat paydo bo`ladi.

Aslida qudratli inson ma`naviy butunligining belgisi bo`lmish bu siniqlik qahramonni sanoqsiz sinovlardan omon-eson olib o`tadi. Alpomishni, oxir-oqibatda, zindondan ham otning qutqarishi zamirida qahramon qalbidagi ana shu ishonch yotgandir, ehtimol. Doston ijodkorlari ayqi shu holatlarni nozik ilg`aganliklari va ustalik bilan hisobga olganliklari jihatidan benazirdirlar.

Asardagi butun voqealarning «Din yo`lida» va «nomus bilan orni» saqlash uchun sodir etilganligi hamda doston voqealarini ko`rsatish jihatidan diqqatga sazovor xulosalar bularning ishtirokchisi bo`dmagan xolis chopar tilidan yo`l-yo`lakay ifoda etiladi. Holbuki, tadqiqotchilar Alpomish ko`rsatgan qahramonliklarning sabablarini izoxlashga uringanlarida adabiy hodisalarni hay ijtimoiy nuqtai nazardan tushuntirib keldilar. Ammo biror mutaxassis og`irkarvon Alpomishni harakatga keytirgan, uni bunchalik qahramonliklar ko`rsatishga undagan asosiy sabab o`zbekka xos or-nomusni saqlash tuyg`usi ekanligani ko`rmadi. Odam umrida shundai bir vaqtlar bo`ladiki, nega aynan shunday yo`l tutganligini o`zga emas, hatto o`zi ham tushuntirib berolmaydi. Kunbotishning ilmi ayni shu tushuniksizlikni ongosti qatlamlarida ro`y bergan ruhiy jarayon bilan izohlashga urinadi.

O`zbek ayoli uchun og`aning bolasi o`zinikidan ortiqroq bo`ladi. Asl o`zbek ayoli, nomusni kuch deb bilgan ojiza, ko`pincha, o`z hayoti, baxtini og`asiga bag`ishlay oladi. Qaldirgoch—shunday ayol. U Alpomish uchun yoridan, baxtidan, oromidan ayrildi. Dostonda hissiy sezimlar juda nozik tasvirlanganligi bilan diqqatni tortadi. Zindonda yotibg`ozni ko`rgan Alpomish holati bu jihatdan xarakterli. Shaxsiga, hayotiga bevosita daxldor bo`lmagan holatlar ham unda nadomat, norozilik uyg`otadi.

O`zbek uchun har qachon ham ko`ngil e`tiborda. Zindonga tushgan g`ozning shunchaki parranda emas, «g`oyibning qushi» ekanligini bilib turib ham Alpomish

ko`nglidan qanday o`ylar kechganiga e`tibor zarur: «O`z elimda. Bobir ko`linda yurgan vaqtlarimda shu g`oz menga yo`liqsa, butun yo`liqar edi. Hozir zindonda yarim odamman-da, bu g`oz menga yarim yo`liqdi». Turk ramz, ishora bilan fikrlaydi. Shunday yashaydi. Shu bois har narsadan turfa ma`nolar chiqara oladi. Zakot so`ralsa, o`g`ilsizligim tufayli ojiz sanadi, oyoq osti qiddi deydi, qimiz bersa, suyub qoldi deb biladi, oti tepaga chiqsa g`olib chiqishiga ishonadi.

Omonatga xiyonat qilmaydigan mo`min musulmon Alpomish uning bu savollariga qiz kutgan javobni bermaydi. Bu xildagi yuksak ma`naviy mezonlar haqida ko`pda bosh qotirib o`tirmaydigan Kayqubod o`zining mantig`i yordamida bu chigal va nozik masalani hal qiladi: «-yezna, ering bo`laman, desang bo`lmaydimi? Alpomish: –Sening ko`nglingga gap kelar deb turibman, – dedi. Bu yog`ing to`g`ri bo`lsa bo`ladi, ayta ber,—dedi. Shunda: – Esaaytib kel, – dedi. Kayqubod Tovkaning keyinidan yetdi:–Qayt, ering bo`laman deyapti,—dedi». G`oyat qaltis va taxlikali shu vaziyat tasvirida Kayqubodga xos xususiyat yorqin namoyon bo`lgan. Negaki, judaham baland ma`naviy-axloqiy mezonlar haqida so`z yuritishga noqobilday ko`ringan Kayqubod o`zi mehr qo`ygan kishisi Alpomish uchun muhabbatidan ham kechishga tayyor ekanligini ko`rsatdi. Ayni shu xildagi manzaralar dostonida inson deb ataluvchi mavjudotning naqadar murakkab va to`liq izohlash mumkin bo`lmagan yaratiq sifatida mukammal tasvirlanganligini tan olishga majbur qiladi.

“Alpomish”ning haqiqati shundaki, Hakimbek–favqulodda jismoniy kuch egasigina emas, balki g`ayb qudratidan quvvatlanadigan shaxs. Shu bois doston syujeti davomida u bir tekieda harakatlanmaydi. Qay bir o`rinlarda g`oyat qudratli, unga hech qanday to`siq yo`q, qay bir kezlarda esa ojizu notavon. Bu tasvirdagi noizchilikdan emas, balki qahramon imkoniyatlarining har o`rinda har xil namoyon bo`lishida. Asar bosh qahramoni tabiatiga xos jihatlar yorqin inkishof etiladigan o`riylarda, odatda, Alpomish g`ayb kuchlariga iltijo qiladi ulardan yordam so`raydi. Ayonki, g`ayb kuchlariga odamning nolasi hamisha ham yetib boravermaydi yoxud bu kuchlar doim ham yordam berishni lozim deb bilmaydi. Negaki, odam sinovlarda toblanadi, azoblar orqali poklanadi. Shuning uchun ham

ilohiy kuchlar o'zlari suygan shaxslarga yeinovlar orqapi poklanish imkoniyatini berishadi. Ularni har qanday xasu cho'pdan ham asrayverishmaydi. Alpomishning zindonda yetti yil indamay yotavermaganligi, necha bor Yaratganga yolvorganligi aniq. Lekin unga qutulish imkoniyati yetti yil to'lganda, shunda ham Boychibor vosita qilingach, berildi. Dostonda Alpomishning Allohga, payg'ambarga, pirlarga, chiltonlarga iltijosi va uning ijobati tasviri ham shundan dalolat.

Xalqimizning dil tarjimoni bo'lib kelgan xalq kitoblarining kattagina qismini muhabbat mavzusidagi asarlar tashkil etadi. Xalqimiz xazinasidan o'rin olgan «Oshiq G'arib va Shohsanam», «Tohir va Zuhra», «Yusuf va Zulayho», «Asil va Karam», «Bahrom va Gulandom» singari o'zbek xalq kitoblari sevgi-muhabbatni ulug'lovchi asarlardir. Ishqiy-romantik mavzudagi xalq kitoblari yaratilishi jihatidan qahramonlik ruhidagi xalq kitoblaridan bir oz keyin vujudga kelgan bo'lsada, ularda feodal munosabatlar tub asosiga, ko'pgana masalalariga qarshi bo'lgan progressiv g'oyalar targ'ib etilgan. Ayni paytda mazkur asarlarda xalhning muhabbat haqidagi ideali, orzu-o'ylari o'zining mujassam ifodasini topgan.

Xalqimizning ko'plab iste'dodli xalq shoirlari otashin muhabbatni, Sof sevgini tarannum etuvchi xalq kitoblarini yaratgan. Xalhning maqsad intilishlari, sof muhabbat haqidagi talab-istaklari, qarashlari ifodalangan namunalar tildan tilga asrlar mobaynida ko'chib yurdi, el orasida keng tarqaldi.

Ishqiy-romantik mavzudagi xalq kitoblari qahramonlari sevgilisi vasliga yetishish yo'lida o'limdan qaytmas, muhabbatni poymol qiluvchi shaxslarga beshafqat, mard insonlar sifatida tasvirlanadi.

Bu kabi kitoblar syujeti uchun xarakterli bo'lgan xususiyatlardan biri shuki, bosh qahramon albatga husn-jamolda tengsiz bir qiz (pari) siymosini ko'zguda yoki sehrli uzukda ko'rib, oshiq bo'lib qoladi. Uni izlab topish iztirobi hech tinim bermagan, ota-ona noroziligiga qaramasdan o'z yurtidan chiqib ta'rif-tavsif etishga xizmat qiladi. «Ohu ko'z», «nozik bel», «qora zulf», «oy yuz», «pista dahan», «daroz qad», «olako'z», «qirg'iy burun», «qiyshiq kalla», «supra quloq», «bo'ri ko'z» singari ayrim qiyoslash asosida shakllangan epitetlarning qo'llanilishidayoq, xalqning tasvir qilinayotgan obrazga nisbatan ixlosi yoxud aksincha uni

xushlamasligi sezilib turadi. Demak, sifatlashlar qahramonlar ichki olamini yoritishda, portretlar tasviridagana emas, balki ularga xalq munosabatini anglatishda ham muhim rol o'ynaydi.

Xalqimizning ijodkorlik tabiatidagi yaxshilikni sharaflab, yomonlikni qoralash xususiyati xalq kitoblariga o'ziga xos rang va ohang baxsh etgan. U uzoq asrlik tajribasi, malakasi orqali dunyoning tuzilishi ziddiyatli ekanini, u yovuzlik va ezgulik homiylarining beto'xtov kurashi asosiga qurilganini badiiy bo'yoqlar orqali yorqin tasvir etgan. Shoh bilan gado, och bilan to'q, feodal bilan dehqon, boy bilan faqir o'rtasidagi tengsizlikni, qarama-qarshiliklarning shohidi bo'lgan xalq hayotda birbiriga zid manfaatlar mavjudligani ko'rdi. Ular orasidagi raqobatni aks ettirishga intildi. Ana shu maqsadni ifodalashga moyillik, tazod san'atining shakllanishi uchun omil bo'ldi deyishga haqlimiz. Chunki, har qanday nazariyaning ildizi zamini voqealikka borib taqaladi. Ma'no jihatidan bir-biriga zid bo'lgan so'zlarni keltirish orqali yasaladigan tazod san'ati ham keyinchalik turli g'oyaviy maqsadlarni ifodalash uchun xizmat qildirilgan.

Ijodkor xalq yaxshilik va yomonlik kuchlarini o'ta quyuqlashtirib, bo'yoqli qilib tasvirlar ekan, ideal qahramonlarni har narsaning uddasidan chiqa oluvchi, har qanday mushkulotni bartaraf etuvchi shaxslar sifatida tasvirlar ekan, so'zsiz bunday paytlarda unga mubolag'a san'ati qo'l qiladi. Xalq odatda har qanday narsa va hodisani kuch, hajm, bo'y, og'irlik jihatidan vajohatli qilib tasvir etadi. Albatta, mubolag'a asosida xalqning o'z ideal qahramonlarini xayolan, fantastik tarzda aks ettirishlari zahirida mehnatkash omma manfaati, orzu umidi va maqsad intilishlari yotadi. Shu borada folklorshunos olimlarimizdan birining «xayol qushining oyog'iga haqiqat ipi bog'langan bo'ladi»,— deyishi bejiz emas.

Shomurti yoqalab har tomon ketgan

Ichida sichqonlar bolalab ketgan

Izdan tushgan pishak olti oyda yetgan

O'z-o'zidan anglashiladiki, bu mubolag'ali tasvir salbiy tipning qisfasini jonlantirishga, ayni paytda devsiyat alplar bilan kurashga chiquvchi Hakimbekning kelbatini, salobatini, kuch-qudratini tasavvur qilishimizga imkon yaratgan.

Mubolag'a san'ati obrazning jonli tasvirini ko'z oldimizda gavdalantirib, unga nafrat yoki muhabbatimizni qo'zg'ata aadi, fikrni lo'nda, obrazli ifodalashda muhim rol o'ynaydi.

Hamma buyuk asarlarda bo'lganidek, «Alpomish» dostonida ham tasvirda hayotiy detallar aniqligining saqlanishiga juda katta e'tibor berilgan va bunga to'liq erishilgan. Boychibor holatiga xos maishiy detallar tasvirida ham aniqlikka rioya etiladi. Holbuki, bunday murakkab yo'ldan bormaslik, tasvirda umumiy ifodalarni keltirish bilan kifoyalanish mumkin edi. Chunki salgina oldin otga chiltanlar duosi bilan ilohiy sifat berilganligi aytilgandi. Tasvirdagi unchamuncha noaniqlik ana shu ilohiylik hisobiga «yuvilib» ketishi mumkin edi. Doston ijodkorlarining badiiy dahosi ularni bu oson yo'ldan yurishga qo'ymaydi va shu bois asrlar osha yashab qoladigan, minglab yillardan keyin ham odamlarga ta'sir o'tkaza oladigan asar yuzaga kelgan. Asarda go'yo gap eng oddiy ot haqida borayotganday. yetti yil mobaynida yorini intizorlik bilan kutgan Barchinning iztiroblari, ruhiyatida kechayotgan jarayonlar dostonida yuksak san'atkorlik bilan aks ettirilgan. «Alpomish» umrining boqiyiligini ta'minlagan omillardan asosiysi shundan iboratki, unda har bir personaj tabiatini aks ettirishda o'shanga eng muvofiq tasvir yo'sini topilgan. Shuning uchun ham Barchinning mulohazalari, iltijolari Qaldirg'ochnikidan farq qiladi. Dostonda ana shu o'zgachalik hamisha saqlab qolishga erishilganki, dunyo folklorida bu kabi hodisa siyrak uchraydi.

“Qultoy”ning favqulodda jasoratini o'g'li Yodgordan eshitgan Barchinoy qulga emas, chinakam bek va alpga xos alomatni Farmonqul bakovulning xotiniga nisbatan yana-da yaqqolroq ko'radi:

Qultoy bobong o'z kunini ko'rolmas,
Qultoy bobong senga ilik berolmas
Qultoy bo'lib, bolam, otang kelgandi
Mung'ayganda ahvolingni ko'rgandi
Qultoy bo'lib to'yxonada yurgandi
Ko'rib senga mehribonlik qilgandi...

Shunday qilib, Barchinoy hali Alpomishning o‘zini emas, otining quyrug’ini ko‘rib, birgina hatti-harakati haqida eshitib, aql-donish timsoliga munosib oqila ayol sifatida o‘zgalarning aqli yetmagan tegishli mantiqiy xulosalar chiqara oladi.

Shu o‘rinda dostonning tasvir maromi, tahlil yo‘sini va ifoda tarzi daf’atan o‘zgarib, ular “to‘ydagi qullarning yoyandozlik o‘yini”ga ko‘chadi. Xuddi Kashal yurtida Barchin alplar oldiga qo‘ygan to‘rt shartdan biri kabi, bu yoyandozlik timsolining ham tagzamini terandir. Xususan, Qultoy qiyofasidagi Alpomishning nishonga urishga behuda urinayotgan qullarning yoylarini bir chekkadan sindirib chiqishi uning Qultoy emas, Hakimbek ekanini mantiqli fikrlay oladigan aqlli odamning ko‘ziga ayon ko‘rsatuvchi yana bir alomatdir. “Qultoy”ning bu ishiga hayron qolgan qullarning:

Bobo, ishing qanday bo‘lar,
Yoy tortuvni qaydan bilding?
Qancha yoylarni sindirding,
Sen kimlardan ta’lim olding?
Yoyandozlikni ne bilding?

qabilidagi savollariga javoban Hakimbek yana sir boy bermay o‘zicha Qultoy bo‘lib deydi, “Men sizlarga burungi kuchimni aytay, Alpomishning Alpinbiy bobosidan qolgan, o‘n to‘rt botmon birichdan bo‘lgan yoyi bor edi. Arpalining ko‘lida yotib, Alpomish bilan ikkovimiz yoy tortishar edik... Alpomishning yoyining o‘qidan mening yoyimning o‘qi o‘tar edi”.

Odatda odam bolasi o‘zi ko‘zlagan murod-maqсад yo‘lida ko‘pdan-ko‘p mashaqqatlar, iztiroblar, ikkillanishlarni boshidan kechiradi. Maqsad qanchalik ulug’ bo‘lsa, mashaqqat ham shunga yarasha bo‘ladi. Ne-ne ulug’ maqsadlar yo‘liga kirgan ne-ne irodasi mustahkam yo‘lchilar bu mashaqqatlarga tob berolmay, “yo‘l azobi-go‘r azobi”ga chidayolmay yarim yo‘lda qolib ketmagan, ortiga qaytmagan, o‘ngdanmi-chapdan yengilroq yo‘llarni qidirishga tushmagan deysiz! Avvalo Oy Barchinni tutqunlikdan xalos etish, shu orqali qoq ikkiga bo‘lingan elni qayta birlashtirishdek Ulug’ Yo‘lga kirgan Hakimbek... yo‘l mashaqqatlariga chidarmi ekan? Qaldirg’ochoyim butun yo‘l davomida unga

yo‘ldosh bo‘lolmaydi, axir. Birga tug‘ilmoq bor, birga yashamoq yo‘q! Bu yo‘lda yo‘llaguvchi yo‘ldosh, qo‘llaguvchi qo‘ldosh qani? “Ota-ona, qarindosh, hech kim bo‘lmaydi yo‘ldosh, Mardona bo‘l, g‘arib bosh, umring yeldek o‘tar-o”. YOlg‘iz o‘tiladigan yo‘l bu Ulug‘ Yo‘l!

Hakimbek qalmoq yurtiga qadarlik sermashaqqat yo‘lda do‘sti sodiq qo‘ldoshdek qo‘llaguvchi ikki ilohiy kuchga yuzma-yuz keladi. Avvaliga chiltanlar qoshida bir kecha tunaydi. Coiltanlar esa, Soohimardon pirning topshirig‘iga ko‘ra, “ilmi karomat bilan” Alpomish va Barchinning ruhlarini uchrashtirib-diydorlashtiradilar. Ana shundan keyin, qarabsizki, Hakimbek “Qadimgidan sertaraddud bo‘lib, biyning qizini tushida ko‘rib: “Oqquba kelgan, qizil chiroyli, xo‘b barkamol, yaxshi qiz ekan”, – deb otlanib yotibdi”. Boshqacharoq aytganda, o‘n to‘rt yoshida xudoning qudrati, pir va chiltanlarning madadi bilan Hakimbekda bu olamdagi eng buyuk ilohiy tuyg‘u – muhabbat uyg‘onadi!

Hakimbek endi o‘z yo‘lidagi ikkinchi muhim bosqichdan o‘tib, bu gal chiltanlar huzurida emas, oddiy cho‘ponning qo‘shxonasida bir kecha tunaydi. Co‘ponning ismi Qayqubot, aniqrog‘i, “Qayqibet” degan qadim turkiy so‘zning birmuncha buzilgan shakli bo‘lib, so‘zning lug‘aviy ma‘nosi “beti qayiqsimon qayqi”, “basharasi qiyshiq” demakdir. “Basharang qiyshiq bo‘lsa oynadan o‘pkalama” deydi halqimiz. Odatda odamning yuz-ko‘zi qanday bo‘lsa shundayligicha ko‘zguda aks etganidek uning ko‘ngli ham yuz-ko‘zida baayni ko‘zgudagidek ayon ko‘rinib turadi. Zotan, yuz – oyna, ko‘z – ko‘zgudir. Agar Hakimbek o‘zining shahzodaligiga kibr-havo hosil qilib, takabburlikka berilib, “Endi kunim shu basharasi qiyshiqqa qoldimi!” qabilida o‘ylab, izzat-nafsga berilganida yurar yo‘li chappasiga ketishi ehtimol edi. Lekin u oqko‘ngil, yuragi toza, dili pok chin oshiq sifatida cho‘pon qo‘shxonasida bir kecha tunashni or deb bilmaydi va ayni shu joyda o‘z fe‘liga yarasha yana bir tush ko‘radi. Bu tushida endi Barchin yorni emas, Haq Do‘st – Rasuli Akram Muhammad alayhissalomni ko‘radi. Ummat rasulga o‘z ko‘nglidagi bir ishtibohni, jumladan, shunday izhor qiladi: “Hali ololmayman Barchin yorimni, Ko‘rolmadim Soohimardon pirimni!”

Rasuli Akram Muhammad alayhissalom Hakimbekka aytgan “bir so‘z” o‘zini yorga nomunosib deb bilgan oshiqning shubha-gumondan xira tortgan ko‘nglini oydek ravshan, quyoshdek charog‘on qiladi:

G‘am yema, ummatim, – dedi payg‘ambar, –
Ostida dulduli, belda zulfiqor
Jilovida Bobo Qambar jilovdor
G‘amingda otlandi Soohimardon pirlar,
G‘ayratingdan bo‘zlab ketar qalmoqlar,
Hech kim bo‘lmas sening bilan barobar,
Senga taqdir qildi Barchin zulfakdor.

Bu, endi Qaldirg‘ochning da‘vat-daldasi va yo Barchinning tushda ko‘rilgan vasli emas, ko‘ngilni to‘ldirib to‘q qilgan komil ishonch va sobit e‘tiqod demakdir

Dostondagi Bodom cho‘ri bilan Qultoy qiyofasidagi Alpomishning aytishuvi shunday bir dahanaki jangki, undagi har bir so‘zda har ikki tomonning asli-nasli ko‘zgudagidek ayon ko‘rinib turadi. Aytishuvdagi dastlabki ikki to‘rtlikni o‘ziga xos kirish, oddiygina tilak-qutlov deb tushunaylik-da, diqqatni keyingi ikki to‘rtlikka qarataylik.

Bodom bekach:

Soyi-soyi seykalay qo‘ydi boshlay, yor-yor,
Qalam qoshli yangalay o‘lan boshlay, yor-yor,
Qiziq-qiziq aytinglay, qiz-kelinlay, yor-yor,
Qizib ketsa Ultonbek tanga tashlay, yor-yor.

“Qultoy”:

Sari ko‘sam serkalar qo‘yni boshlar, yor-yor,
Qalam qoshli yangalar o‘lan boshlar, yor-yor.
Qiziq-qiziq aytmanglar, qiz-kelinlar, yor-yor,
Alpomishdan qolgan molni Ulton kimga tashlar, yor-yor.

Dastlabki to‘rtlikda “O‘lan aytgin Ultonbek zamoninda, yor-yor” deya qul o‘g‘lining zamonini dorilomon zamon sifatida ta‘riflayotgan Bodom bekach bu

o‘rinda endi o‘tirganlarni Ultonbekning sahovatidan umidvor qiladi. Avvaliga “Qariganda kelinli bo‘laqopsan” deya piching qilsa-da, har qalay, “Qulluq bo‘lsin, yangajon, to‘ying, Bodom” deya to‘yni go‘yo olqishlagan “Qultoy” endi birovning moli xisobiga qilinadigan sahovat aslida sahovat emasligini dangal aytishga o‘tadi. Bu achchiqqina haq gapi uchun, hattoki Alpomish nomini tilga olgani uchun boshqa paytda Ultontoz “Qultoy”ni o‘linga hukm qilishi muqarrar edi, albatta.

Milliy ma’naviyatimiz rivojida muhim o‘rin tutgan “Alpomish” dostonida qadim xalqimizning ishonch-e’tiqodlari , qadriyatlari va milliy ruhi to‘la ma’noda aks etgan. Bu dostonni o‘qib o‘rganish, qadriyatlarimizni asrab-avaylash bilan birga xalqimiz ruhiyatiga singib ketgan sevgiga sodiqlik, ota-onaga hurmat, do‘stga birodarlik tuyg‘ularini shakllantiradi.

XULOSA

Xalqimiz milliy istiqlolni qo‘lga kiritganidan keyingi dastlabki kunlardan oq ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan ma‘naviy qadriyatlar silsilasini o‘rganish va uning qadimiy an‘analarini qayta tiklashga bo‘lgan ehtiyoj har qachongidan ko‘ra ham ortdi. Folklor merosini targ‘ib va tadqiq etish ham ana shu ezgu ishlarning ajralmas qismi hisoblanadi. O‘zbekiston istiqlolining ma‘naviy asoslarini mustahkamlash va xalqimizning oydin kelajagiga zamin hozirlashdek ulug‘vor maqsadlar yo‘lida bajarilayotgan ulug‘vor ishlarda ma‘naviy qadriyatlarni o‘rganishning ahamiyati juda kattadir. Mamlakatimizda olib borilayotgan yangilanish va o‘zgarishlar adabiyot va san‘at ahli oldiga bir qator muhim talab va vazifalar qo‘ymoqda. Zero, ma‘naviyat borasida olib borilayotgan ezgu ishlarning yechimi bevosita zamondoshlarimizning ma‘naviy olamini tubdan yangilash, boyitish va ularni komil insonlar qilib tarbiyalashdek dolzarb masalalar bilan chambarchas bog‘langandir.

Folklor asarlarida o‘z ifodasini topgan milliy qadriyatlar yosh avlodni har tomonlama kuchli, ma‘naviy jihatdan yetuk va barkamol qilib tarbiyalashning muhim omillaridan biridir. Zero, xalq og‘zaki ijodi ma‘naviy taraqqiyotga doimo quvvat berib kelgan. Mamlakatimiz Prezidenti I.A.Karimov ta‘kidlaganidek: “...qancha avlod-ajdodlarimiz “Alpomish” dostoni asosida tarbiya topgan, o‘zligini anglagan, ma‘naviy boylikka erishgan”¹. SHunday ekan, xalqimizning qalb qo‘ri, yuksak aql-zakovati bilan asrlar davomida yaratilib, avloddan-avlodga o‘tkazib kelingan folklor namunalari qatori ertaklarni ham o‘rganish juda muhimdir.

Qadimiy epik an‘analarni o‘zida mujassam etgan dostonlar xalqimizning mifologik tasavvurlari, e‘tiqodiy qarashlari, turmush tarzi va ma‘naviyatini o‘zida mujassamlashtirganligi uchun yosh avlodga kuchli badiiy-estetik ta‘sir ko‘rsatish imkoniga ega. Ularni tadqiq va targ‘ib qilish orqali millatimiz ma‘naviyati va madaniyati tarixiga oid ko‘pgina ma‘lumotlarni bilib olish mumkin. SHuning uchun dostonlarning o‘ziga xos

¹ Islom Karimov. Yuksak ma‘naviyat-engilmas kuch. Toshkent, “Ma‘naviyat”, 2008

badiiy xususiyatlarini chuqur o'rganish xalqimiz badiiy tafakkurining qonuniyatlarini yanada teranroq anglashga xizmat qiladi.

Shuni alohida qayd qilish joizki, istiqlol tufayli qadimiy an'analarga boy adabiy merosimizni umumta'lim maktablarida o'rgatish imkoniyatlari ham kengaydi. Xalq dostonlari tili, ularning badiiy qirralari, g'oyasi, uning o'smirlar ma'naviy komolotida muhim o'rin tutishi haqida gapirish, oddiy insoniy tuyg'ularni badiiy tahlil qilish, ular haqida fikr yuritishi mumkinligining o'zi ham hozirgi davr ijodkor o'qituvchisining erkinligidan, ozodligidan nishonadir. Shunday ekan haqiqiy badiiyat namunalari bugungi kun kishisini soxta yo'llardan emas, balki erk va ma'naviy tiklanish yo'lidan dadil odimlashga undaydigan tafakkur mo'jizalaridir. Mustaqillik mafkurasi va milliy g'oya bilan sug'orilgan bunday asarlarni o'qigach yosh avlodning qalbida o'z ajdodlari o'tmishiga bo'lgan muhabbat yanada kuchayadi. Vatanining, o'z millatining tarixiga, sharaflari kechmishiga bo'lgan bunday ehtirom kurtaklari asta-sekinlik bilan o'sib-ulg'ayib, milliy ruh va milliy tafakkur egalari bo'lmish navqiron avlodni, mamlakatimizning shonli istiqbolini belgilaydigan komil insonlarni tarbiyalab voyaga yetkazadi. Tafakkur doirasi g'oyatda keng qamrovli, teran fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan, qalbi pok millat kishisi faqat ezgulik qilishgagina qodir bo'ladi. Zero, mamlakatimiz Prezidenti Islom Karimov ta'kidlab o'tganlaridek, "Ma'naviylik va ma'rifiylik xalqimizning ko'p asrlik tarixi davomida doimo uning eng kuchli o'ziga xos xususiyati bo'lib keldi"¹.

Folklor asarlarining asosiy xususiyatlarini belgilovchi yetakchi estetik xossalaridan biri uning xalq hayoti bilan bevosita bog'liqligidir.

¹ Karimov I. A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. Toshkent, O'zbekiston, 1998. B. 45.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I. A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. Toshkent, O'zbekiston, 1998. 325 b.
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat–engilmas kuch. Toshkent, 2008.
3. Karimov I.A. Adabiyotga e'tibor– ma'naviyatga, kelajakka e'tibor. // Tafakkur jurnali, 2009, 3-son, 3-10- b.
4. Adabiyot nazariyasi. (M.Nurmuhamedov tahriri ostida) Ikki tomlik. Toshkent, 1978-1979.
5. Alpomish (Xushboq Mardonqul o'g'li varianti)-Toshkent, 1998. 208-b
6. Alpomish. (O'zbek xalq qahramonlik dostoni)- "SHarq" nashriyot matbaa konserni tahririyati. Toshkent, 2010.398-bet
7. YOrmatov I. O'zbek qahramonlik eposi badiiyati. Toshkent, 1994.
8. YOrmatov I. O'zbek xalq eposi badiiyati ("Alpomish" dostoni asosida). Toshkent, 1993.
9. Jabbor Eshonqul. "Alpomish" dostonida ayollar obrazi. // O'zbek tili va adabiyoti jurnali, 4-son, 1999. 19-21-betlar
10. Jabbor Eshonqul. "Alpomish" dostoni va "dada Qo'rqut kitobi" dagi tutqunlik motivining qiyosiy tahlili ("Alpomish"-o'zbek xalq qahramonlik eposi" to'plami)- Toshkent, "Fan", 1999.
11. Jabbor Eshonqul. Folklor: obraz va talqin. Qarshi, "Nasaf" 1999-yil.
12. Imomov K. "Alpomish" dostonining ayrim xususiyatlari ("Alpomish"-o'zbek xalq qahramonlik eposi" to'plami)-Toshkent, "Fan", 1999.
13. Imomov K. "Alpomish" eposida obrazlar tizimi. // O'zbek tili va adabiyoti jurnali, 4-son, 1999. 9-13-betlar
14. Imomov. K. "Alpomish" dostonining ayrim xususiyatlari ("Alpomish"-o'zbek xalq qahramonlik eposi to'plamida)-Toshkent, "Fan", 1999.
15. K.Imomov, T.Mirzayev, B.Sarimsoqov, O.Safarov. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. Toshkent, "O'qituvchi", 1990. 304-b.
16. Q.Yo'ldoshev, V.Qodirov, J.Yo'ldoshbekov. Adabiyot (9-sinf uchun darslik)- Toshkent, "Yangiyo'l polegraf serves" nashriyoti, 2010.304-b.

- 17.Q.Yo‘ldoshev. “Alpomish” talqinlari. Toshkent, “Ma’naviyat”, 2002. 168-b.
- 18.Madayev O. “Alpomish” bilan suhbat. Toshkent, “Ma’naviyat”, 1999-yil.
- 19.O.Madayev. “Alpomish” haqida suhbatlar. // www.kitob.uz
- 20.O.Madayev. O‘zbek xalq og‘zaki poetik ijodi. Toshkent, 2001. 256-b
- 21.S.Quronov. “Alpomish” da konflikt masalasi. // www.quronov-narod.uz
- 22.Saidov M. O‘zbek xalq dostonchiligida badiiy mahorat masalalari. Toshkent, “Fan”, 1969-yil
- 23.Sarimsoqov B. “Alpomish” klassik epos namunasi. // O‘zbek tili va adabiyoti jurnali, 4-son, 1999. 3-9-betlar
- 24.To‘ychiboyev B. “Alpomish” dostoni va xalq tili // O‘zbek tili va adabiyoti jurnali, 4-son, 1999. 22-26-betlar
- 25.To‘ra Mirzayev. Doston gultoji (“Alpomish” dostoniga so‘zboshi)-Toshkent, “Sharq” nashriyoti, 2010.
- 26.Hodi Zaripov. “Alpomish” eposining asosiy motivlari (“Alpomish”-o‘zbek xalq qahramonlik eposi to‘plamida)-Toshkent, “Fan”, 1999.
27. Internet manbalari
www.literature.uz
www.ziyouz.com
www.ziyouz.net
www.e-adabiyot.com
www.adabiyot mazaralari // fecbook.com